

U. R. HONOR

MAKTABGACHA TA'LIMNING ME'YORIY ASOSLARI

74. 200. 525

Q-94

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

I.A.OXUNOV

MAKTABGACHA TA'LIMNING ME'YORIV ASOSLARI

o'quv qo'llanma

Toshkent
"Innovatsiya-Ziyo"
2021

UDK: 373.8
BBK: 74.200.525
I 15

I.A.Oxunov

Maktabgacha ta'limning me'yoriy asoslari /o'quv qo'llanma/
Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2021, 182 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash mazmuni va uslubi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish mazmuni va uslubi hamda maktabgacha ta'lim muassasasi menejmenti, mudira va uslubchi faoliyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va oila hamkorligiga doir masalalar va ularning me'yoriy asoslari yoritilgan.

Taqrizchilar:

M.B.Artikova

*Andijon davlat universiteti "Maktabgacha pedagogika"
kafedrasi mudiri, p.f.d.dotsyent*

N. Qosimova

*AVXTTMO hududiy markazi Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari
kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-5866-4-3

© I.A.Oxunov, 2021.

© «Innovatsiya-Ziyo», 2021.



KIRISH

Yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk rivojlangan, jismoniy jihatdan barkamol, salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonda ta'lim tizimi va uning turlari, 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, O'zbekiston Respublikasi MT sohasiga doir namunaviy Nizomlar, "Ilk qadam" dasturining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat o'quv dasturi sifatidagi ahamiyati, YUNESKO tashkilotining "Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyasi kabi mavzularda mufassal fikr yuritilgan.

Maktabgacha ta'limda "Maktabgacha ta'limning me'yoriy asoslari" fani O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uning huquqiy asoslari, maktabgacha ta'lim tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari, "Ilk qadam" dasturi maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi bolalarni huquqiy tarbiyalashda qonun hujjatlaridan foydalanish kabi masalalarni o'rganishga yo'naltirilgan.

"Maktabgacha ta'limning me'yoriy asoslari" o'quv qo'llanmasida maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash mazmuni va uslubi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish mazmuni va uslubi hamda maktabgacha ta'lim muassasasi menejmenti, mudira va uslubchi faoliyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va oila hamkorligiga doir masalalar tizimli, izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

I MODUL. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

1-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI VA UNING TURLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "TA'LIM TO'G'RISIDA" GI QONUNI

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.
2. Ta'lim turlari va faoliyat olib borish shakli.
3. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni va uning mazmun mohiyati.
4. Ta'limni boshqarish organlari.

Tayanch so'z va iboralar: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
 - ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;
 - ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularning boshqaruvi ostidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar.
- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va yaxlitdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi ta'lim turlari

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi. Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (IV-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim: Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha tashkilotlarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Umumiy o'rta ta'lim: To'qqiz yillik (I-IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi. Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

- maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqlik hisobga olinishi lozim;
- yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;
- hududlarning geografik va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvini joriy etish;
- ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash;
- o'quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

O'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi: Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki

egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

- kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning geografik va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;


- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.¹

Ta'limni boshqarish organlari

Ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi

¹ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, -T.:O'zbekiston, 1997.

amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta'lim muassasasi, Toshkent Islom Universiteti, shuningdek, xalqaro mashhur xorijiy OTMLar (MDU, Westminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi.



2-rasm. Vazirlar Mahkamasi tomonidan bevosita boshqariluvchi ta'lim muassalari


O'zbekistonda ta'lim tizimlari faoliyati bevosita boshqaruvini ikki vazirlik – Xalq ta'limi vazirligi (XTV) va Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi (OO'MTV) - amalga oshiradi.

XTV boshqaruvida o'qituvchilar malakasini oshirish 5 OTM va 16 instituti mavjud. Vazirlik joylardagi tegishli ta'lim muassasalari faoliyatini metodologik boshqaruvchi viloyat, tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlariga ega.

OO'MTV respublikada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik tizimiga O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy o'quv yurtlari kiradi.



3-rasm. O'zR OO'MTV tizimi tashkiliy strukturasi

Davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi yoshlar tarbiyasida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi.

“Oliy ta'lim” atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod,

ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir. Oliy ta'lim odatda 18-19 yoshdan boshlanadi va kamida 4 yil davom etadi. Ikki bosqichga bo'linadi. Ular oliy ta'lim muassasalari mustaqilligini kuchaytirish, jamoat boshqaruvini joriy etish. O'qishda mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda masofadan ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqarish hamda o'zlashtirish, ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlashni nazarda tutadi.

Oliy ta'lim tizimi

- xususiy yoki davlat qaramog'ida ekanligidan qat'i nazar ta'limiy hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta'lim standarti asosida tatbiq etuvchi oliy ta'lim muassasalari;
- oliy ta'limni rivojlanishiga zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;
- davlat tomonidan ta'limni boshqaruvchi idoralar, shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalar.



4-rasm. Oliy ta'lim tizimi tuzulishi

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriyat va magistratura.

1. Bakalavriyat: "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga

muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni qabul qilish tartibi "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom" bilan, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizom" bilan belgilanadi.

Bakalavriyat - fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'nalishlaridan biri.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, bakalavriyat ta'lim dasturining oxirida tayyorlov yo'nalishiga ko'ra "bakalavr" akademiyak unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Bakalavrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish aniq tayyorlov yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Bakalavriyatning mos yo'nalishlari uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Bakalavriyatda bir xil profilli (umumiy kasb hunar tayyorgarligi o'xshash) o'rta maxsus, kasb hunar ta'limiga ega bo'lgan shaxslarga, oliy ta'limning shu yo'nalishidagi o'quv rejalariga bog'liq (ketma-ketlikni ta'minlovchi) ta'lim dasturini to'liq egallashning tezkor imkoniyatlari beriladi.

O'quv rejasiga bog'liq yo'nalish ro'yxati va kadrlar tayyorlash sharoitlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bakalavr:

- yo'nalish bo'yicha lavozimga tayyorlangan oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar bilan almashtirilishi kerak bo'lgan ishga;

- bakalavriyatning mos keluvchi yo'nalishlar doirasida tanlagan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

- qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Bakalavrlarni yangi yo'nalishlari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

2. Magistratura: "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga talabalarni qabul qilish tartibi "Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom" bilan belgilanadi. Magistratura – bakalavriyat asosidagi ikki yildan kam bo'lmagan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limning davomi hisoblanadi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, magistratura ta'lim dasturining oxirida aniq mutaxassislik bo'yicha "magistr" akademiyak unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Magistrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish magistraturaning aniq mutaxassisligi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Magistraturaning mos mutaxassisligi uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Magistr:

- aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy pedagogik va boshqaruv, professional faoliyatini olib borishga;

- magistraturaning mos keluvchi mutaxassisligi doirasida oliy ta'limidan keyingi aspiranturada davom ettirishga;

- qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Oliy ta'lim muassasasida magistratura yo'nalishini ochishning asosiy sharti – bu o'quv tarbiyaviy jarayon bilan bog'liq va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlanishini ta'minlovchi mos kafedralarning ilmiy pedagogik potentsiali mavjudligi va ilmiy tadqiqot ishlarini yuqori darajada olib borish imkoniyatining bo'lishi. Magistrnlarni yangi mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassasalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Oliy ta'lim muassasasi strukturasida magistraturaning maxsus bo'limi (fakultet, markaz) ochiladi va unga quyidagi vazifalar beriladi:

- talabalarning o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtirish va nazorat qilish, o'quv-uslubiy hujjatlar va o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish;

- magistrlar yetishtirib beruvchi kafedralar faoliyatini koordinatsiyalash;

- magistrlar tayyorlash protsessining monitoringi.

Oliy ta'lim muassasalari: Oliy ta'lim muassasalari yuridik

maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:

Universitet: oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir necha yo'nalishda beradi;

- turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;

- fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi;

- ilm sohasi bilan chambarchas bog'liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya: ta'lim sohasida ma'lum belgilangan oliy va oliy ta'limdan so'nggi ta'lim berishga mo'ljallangan o'quv dasturini bajaradi;

- mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;

- fan, madaniyat, san'at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;

- o'z faoliyati doirasida yetakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

Institut: oliy va oliy ta'limdan keyingi o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lum bir me'yorida amalga oshiradi;

- mutaxassislarni ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi;

- fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta'lim olish uchun nodavlat muassasalarini tuzishga qonunchilik ruxsat beradi. Ushbu muassasaga davlat akkreditatsiyani attestatsiyadan tegishli tartibda o'tgachgina bersa u o'qitish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining Attestatsiya u davlatga tegishli yoki xususiylikidan qat'iy nazar, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish Boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar mahkamasi tasdiqlagan, Davlat test markazi tomonidan qabul qilingan pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish Nizomi asosida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar jamoasi attestatsiyasidan o'tkaziladi. Attestatsiya natijalariga ko'ra istalgan oliy o'quv muassasasi davlat akkreditatsiyadan mahrum etilishi mumkin.

Eksternat — oliy ta'lim dasturiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining o'qitiluvchi tartibini keyingi(joriy va kuniy) attestatsiyagacha tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil o'rganish.

Masofaviy ta'lim — asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan uzoqda o'quv dasturidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kunduzgi o'qitish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning yo'nalishlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash;
- oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;



- ilm-fan, madaniyat, iqtisodning zamonaviy turlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini turlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy istiqbol g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;

- o'qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovatsion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish, masofaviy ta'lim tizimini amaliyotga joriy qilish;

- oliy ta'limda fan va ishlab chiqarish mexanizmlarining uyg'unligi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;

- ilmiy-pedagogik kadrlar va ta'lim oluvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqotlari yordamida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish, ta'lim jarayoni orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga hissa qo'shish;

- davlat va nodavlat oliy o'quv muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni yuzaga keltirish;

- oliy o'quv muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish uchun jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzatuvchi kengashlarni kiritish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish, yo'nalishi bo'yicha belgilangan mehnat bilan ta'minlash monitoringini tuzish;

- oliy ta'lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

Oliy ta'lim tizimini boshqarish

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi

doirasida oliy ta'limni boshqarish davlat vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi hisoblanadi.

Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligiga, tarkibida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar va boshqarmalar bilan birgalikda quyidagi vazifalar beriladi:

- bakalavr yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta'lim standartlarini, o'quv reja va o'quv fanlari dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va bosqichma-bosqich kiritib borish, hamda respublika oliy ta'lim muassasalarini ular bilan ta'minlash;

- oliy ta'lim yo'nalish va mutaxassislik Klassifikatoriga zarur bo'lganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;

- oliy ta'lim muassasasi faoliyatining normativ-huquqiy ta'minotini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish;

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari o'quv-uslubiy boshqaruvini amalga oshirish;

- oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini muvofiqlashtirish;

- Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning normativ-uslubiy integratsiyasini ta'minlash.

Oliy ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy shakllarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining rektorlar kengashi tashkil qilingan bo'lib, uning faoliyati belgilangan nizom bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur nizom asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasining bevosita boshqaruvi rektor tomonidan amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim muassasasi rektori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, nodavlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari ta'sischilar tomonidan tayinlanadi.

Oliy ta'lim muassasasining ish natijalari uchun to'liq javobgarlik rektor zimmasida turadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va oliy ta'lim muassasa Nizomiga ko'ra, rektor oliy ta'lim muassasasi nomidan barcha organ va tashkilotlarda faoliyat yuritadi, mol-mulkka belgilangan tartibda egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalarni taqdim etadi, bankda oliy ta'lim muassasasining hisob raqamini ochadi va kreditlar boshqaruvchisi hisoblanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirilishining alohida javobgarligi rektor zimmasiga yuklatilgan.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart - sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir².

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ilgari surilgan maqsadni to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

— “Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmuyi sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

— ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati ham muhim, ahamiyatli tamoyillarga asoslanadi. Respublikaning ta'limga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilar: (“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun 3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.)

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Davlat siyosatining ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillari fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar ta'lim olishda teng huquqqa ega ekanliklarini ifodalaydi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari ham aniq ko'rsatib berilgan. Mazkur yo'nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash; pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining turlarini rivojlantirish; ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish; ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish; majburiy o'rta umumiy ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash; yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish; yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limning barcha daraja va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish; ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish; ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan

integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish; chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish; tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.²

Shu kunga qadar amal qilgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni loyihasi e'lon qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan iborat.

Qonunning asosiy vazifalari:

- ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlar va mexanizmlarni yaratish;
- ta'lim olish jarayonida ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va shaffoflikni ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari darajasigacha takomillashtirish;
- ta'lim sohasida davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini belgilash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

² Maktabgach ta'lim konsepsiyasi, -T.:2008 y.

- ta'lim sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini hamda ularning o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish.

- Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb tan olinadi.

Davlat jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olishda teng huquqlarni kafolatlaydi.

Davlat ta'lim olish huquqini quyidagilar orqali ta'minlaydi:

- ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

- ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni va ta'lim dasturlarini innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash;

- yetakchi klassik oliy ta'lim muassasalari maqomini belgilash va ularni qo'llab-quvvatlash;

- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy, dual) ta'lim olishni tashkil etish;

- kadrlar tayyorlash va ta'limga oid davlat dasturlari asosida o'qitish;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni bepul olish;

- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan, shuningdek, majburiy umumiy o'rta ta'limni to'liq olmagan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish;

- ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini mehnat bozorining talablariga muvofiq shakllantirish.

Xorijiy mamlakatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga va qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturlarini yoki ulardan birini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlari;

- yakka tartibda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar (repetitorlik);

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'lim sohasida davlat boshqaruvi organlari hamda ularga idoraviy mansub tashkilotlar.

- O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

- kasbiy ta'lim;

- oliy ta'lim;

- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

- maktabdan tashqari ta'lim.³

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi haqida nimalar bilasiz?

³ Qosimova N., Toshpo'latova N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. - o'quv qo'llanma.

2. O'zbekistonda ta'limning qanday turlari mavjud?

3. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyatini izohlang.

4. Oliy ta'lim qanday turlarga bo'linadi?

5. Ta'lim tizimini boshqarish qaysi organ zimmasiga yuklangan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юсупова П. Мактабгача тарбия педагогикаси. Т.: Ўқитувчи, 1993.

2. Хасанбоева О.У. ва бошқ. Мактабгача та'лим педагогикаси. Т.: Илм зиё, 2006.

3. Ш.А.Содиқова "Мактабгача педагогика". "Тафаккур сарчашмалари", Т.: 2013 й.

4. <https://kun.uz/uz/news/2019/08/30/yangi-tahrirdagi-ozbekiston-respublikasining-talim-togrisidagi-qonuni-loyihasi-elon-qilindi>

5. <https://fayllar.org/1-mavzu-o'zbekiston-respublikasi-talim-tizimi-pedagogika-shaxs.html>

6. <https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-bu-v4.html?page=2>

7. <https://fayllar.org/samarqand-iqtisodiyot-va-servis-instituti.html?page=6>

2-MAVZU. 2017-2021-YILLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

Reja:

1. 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari.

2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

3. Maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish

4. Maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar

5. Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish

Tayanch so'z va iboralar: "Dastur", Konsepsiya, moliyaviy ta'minlash, xorijiy tajriba, davlat-xususiy sherikchilik.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida quyidagilarni o'z ichiga olgan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish

bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dastur (keyingi o'rinlarda Dastur deb yuritiladi) qabul qilindi va amaliyotga keng tatbiq etilmoqda:

- maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejas;

- 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning asosiy parametrlari, moliyalashtirish hajmi va manbalari;

- 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli guruhlarni tashkil qilishning asosiy parametrlari tasdiqlandi.

Dasturning asosiy maqsadli vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;

- maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha 6100ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish;

- 2200ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan qishloq joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, ularni

zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017 — 2021-yillarga mo'ljallangan dasturning bajarilishini muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda Respublika komissiyasi deb yuritiladi) tarkibi tasdiqlandi.

Respublika komissiyasi (A. N. Aripov) Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan mas'ul bo'lgan vazirlik, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirishni, belgilangan tadbirlarning to'liq va sifatli bajarilishi hamda asosiy parametrlarga erishilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish belgilandi.

Respublika komissiyasiga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari taqdimnomasi bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning har yili tasdiqlanadigan manzilli ro'yxatiga tasdiqlangan asosiy parametrlar doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shuningdek o'yin maydonchalari, bolalar ayvonlari qurish va ularning hududini o'rash maqsadlari uchun — O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi doirasidagi mablag'lar;

Maktabgacha ta'lim tashkilotari hududini obodonlashtirish va ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun — Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining mablag'lari;

Maktabgacha ta'lim tashkilotarini jihozlash uchun — O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar va donor mamlakatlar mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalaridir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish namunaviy loyihalar bo'yicha amalga oshiriladi; maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha buyurtmachi vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injinering kompaniyasi zimmasiga yuklatiladi; maktabgacha ta'lim tashkilotarini jihozlash, mulkidan samarali foydalanish hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyurtmasi asosida "ToshuyjoyLITI" aksiyadorlik jamiyati bilan birgalikda xorijiy tajribadan va mamlakatimizning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, yangidan qurilishi belgilangan quvvati 70 va 120 o'rinli zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotarining namunaviy loyahasini ishlab chiqish belgilandi;

Dastur doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlanishi zarurligi belgilandi. Buyurtmachilar bilan pudratchilar o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, jumladan tasdiqlangan namunaviy loyihalarga muvofiq bajariladigan loyiha va qurilish-montaj ishlariga qo'yiladigan talablarga hamda shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring o'rnatdi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

-tasdiqlangan maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning asosiy parametrlari samarali va sifatli bajarilishini ta'minlash;

- har yili O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi loyihasi va qurilishning manzilli ro'yxatini shakllantirishda yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash hamda ularni zaruriy jihoz va inventarlar bilan ta'minlashning moliyalashtirish hajmini aniqlagan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotarining aniq soni va ro'yxatini belgilash choralarini ko'rishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Qurilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlari zimmasiga quyidagilarni amalga oshirishda shaxsiy mas'uliyat yuklatildi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash manzilli ro'yxatiga kiritilgan obyektlar bo'yicha tanlov (tender) savdolarini o'z vaqtida o'tkazish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarida qurilish-montaj ishlarining bajarilishi va foydalanishga topshirilishida tasdiqlangan namunaviy loyiha, shaharsozlik normalari va qoidalariga qat'iy rioya qilish.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar va idoralar bir oy muddatda o'zlarining normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirildi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. N. Aripov zimmasiga yuklandi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur tizimni

yanada takomillashtirish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va rag'batlantirish tug'risida"gi Qarori bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Jumladan, 2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha dastur tasdiqlandi, uning doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini tizimli tashkillashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash borasidagi ishlar boshlab yuborildi. Soha rivojiga hissa qo'shadigan qator imtiyozlar joriy etildi. Jumladan, maktabgacha ta'lim nodavlat muassasalarining binolarini qurish uchun bepul asosda doimiy foydalanishga yer maydonlari taqdim etilishi, bo'sh yotgan davlat mulki obyektlarini, shu jumladan, faoliyat ko'rsatmayotgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarining binolarini "nul" xarid qiymatida sotish va boshqalar.

O'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmon va qarorlari, shuningdek, "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni

bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotariga bolalarning qamrovi 10 foizga oshishi, 2018-yilda esa maktabgacha ta'lim tashkilotarini saqlash xarajatlari joriy yilga nisbatan 32 foizga o'sishi kutilmoqda.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq quyidagilar belgilandi:

1. a) O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) quyidagilarni nazarda tutgan holda:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

b) O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda - "Yo'l xaritasi;

v) 2019-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

g) 2025-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Belgilandiki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlanadigan

alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi zimmasiga:

- har yili 1-dekabrga qadar o'tayotgan yilning "Yo'l xaritasi" bajarilishi yakunlarini batafsil o'rganish asosida keyingi yil uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritсин;

- "Yo'l xaritalari"ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borish vazifasi yuklatildi.

3. Mazkur qarorda nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari;

- xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar kreditlari (qarzlar), grantlari va texnik ko'maklashish mablag'lari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining har yillik parametrlarini shakllantirishda ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarini moliyalashtirish va ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun mablag'larni nazarda tutadi.

5. - O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari A. A. Abduhakimovga - mas'ul vazirliklar va idoralarning Konsepsiya hamda "Yo'l xaritasi"ni bajarish bo'yicha faoliyati va o'zaro hamkorligini samarali tashkil etish, "Yo'l xaritalari" bajarilishini

monitoring qilish davomida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish;

– O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vaziri A.V. Shinga – Konsepsiya va "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli va to'laqonli bajarish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatildi.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ommaviy axborot vositalarida mazkur qarorning maqsad va vazifalarini keng yoritish bo'yicha chiqishlar va tematik ko'rsatuvlar tashkil qilish belgilandi.

7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi zarurligi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar

Bugungi kunda O'zbekistonda 7 104ta maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyat yuritadi, ulardan 5 604tasi (79 foiz) – davlat, 63tasi – idoraviy va 1 437tasi (21 foiz) – nodavlat muassasalardir.

2017-2018-yillarda 752ta maktabgacha ta'lim tashkilotari filiallari negizida yuridik shaxs maqomiga ega to'laqonli maktabgacha ta'lim tashkilotari tashkil qilingan.

3-7 yoshdagi bolalarning umumiy sonidan (2,5 mln) 932 310 nafari (37,7 foiz), shundan shaharlarda 500 236 nafari (20,2 foiz) va qishloq joylarda 432 074 nafari (17,4 foiz) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan.

Respublika aholisining umumiy soni 2019-yil 1-yanvar holatiga 32,7 mln kishini tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholining uzoq muddatli o'rtacha o'sish sur'atlari 1,7-1,8 foizni tashkil qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida o'lim koeffitsiyentining boshqa barcha yosh guruhlariga nisbatan pastligini inobatga olganda, 3-7 yoshdagi bolalar sonining o'sish sur'atlari butun aholining o'sishiga qaraganda yuqoridir. O'zbekistonda yashovchi 3-7 yoshdagi 2,5 milliondan ortiq

bolalarning 67,8 foizi Samarqand (12,1 foiz), Farg'ona (10,8 foiz), Qashqadaryo (10,5 foiz), Andijon (9,3 foiz), Surxondaryo (8,5 foiz), Namangan (8,4 foiz) va Toshkent (8,2 foiz) viloyatlarida istiqomat qiladi. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotariga tushadigan yukni oshiradi.

Chunonchi, maktabgacha ta'lim tashkilotariga tushadigan umumiy ortiqcha yuk respublika bo'yicha 12 foizni tashkil qilsa, uning eng yuqori darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasida (21 foiz), Jizzax (35 foiz) va Buxoro (21 foiz) viloyatlarida, eng past darajasi esa Surxondaryo (9 foiz) va Farg'ona (9 foiz) viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida (6 foiz) kuzatilmoqda. Umuman, mamlakat bo'yicha 3-7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta'lim tashkilotarida 28,1ta joy to'g'ri keladi.

So'nggi 20 yil ichida maktabgacha ta'lim tashkilotari soni 45 foizdan ziyodga qisqargan. Bunday qisqarish ko'proq Andijon, Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari kabi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda kuzatildi. Bugungi kunda O'zbekistondagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotarining 55 foizdan ortig'i Toshkent shahriga (14,8 foiz), Farg'ona (12,6 foiz), Toshkent (9,8 foiz), Namangan (9 foiz) va Samarqand (8,9 foiz) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, ular qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotari sonining yetarli emasligi;

- qishloq joylarda maktabgacha ta'limning past darajada rivojlanganligi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarining moddiy-texnik holati lozim darajada emasligi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;

- maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi;

- ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;

- zamonaviy o'quv-metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi;

- alohida ehtiyojli bolalar uchun mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta'minoti darajasining pastligi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasi zamon talablariga to'liq javob bermasligi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

- bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

- maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosati ishlab chiqilayotgan me'yoriy-huquqiy bazada o'z aksini topadi.

Maktabgacha ta'lim sohasi ko'plab qonun hujjatlari bilan tartibga solinishiga qaramay, maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Shu munosabat bilan, Konsepsiyani amalga oshirish doirasida maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1) ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan amaldagi davlat talablarini qayta ko'rib chiqish hamda quyidagilarni nazarda tutuvchi Maktabgacha ta'limning davlat standartini ishlab chiqish:

- maktabgacha ta'lim tashkilotari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarga qo'yiladigan talablarni;

- bolalarni parvarishlash, ularga qarash, sog'lig'ini saqlash va yaxshilash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibini;

2) maktabgacha ta'lim tashkilotari tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash normativlarini tasdiqlash;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

4) maktabgacha ta'lim tashkilotarining namunaviy ustavlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

5) kasalliklarning profilaktikasi va diagnostikasi tartibini takomillashtirish, shuningdek, idoralararo o'zaro hamkorlik mexanizmlari orqali bolalarni psixologik-tibbiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;

6) maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan xalqaro me'yorlar va standartlarni implementatsiya qilish;

7) maktabgacha ta'lim tashkilotarida innovatsion pedagogik faoliyatni va uni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

2) maktabgacha ta'lim tashkilotari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

4) "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini keng joriy etish;

5) tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o'rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta'lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko'maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;

7) maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;

8) mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;

9) bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

10) maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish;

11) bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish;

12) maktabgacha ta'lim tashkilotariga qatnamaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlari turlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish.

Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish bo'yicha vazifalarni hal etish birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkilotari quvvatlarini oshirishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug'ilishning o'sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turishni ta'minlab beradi, ammo uning o'sishiga yordam bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'larining cheklanganligini e'tiborga olib, nodavlat sektor maktabgacha ta'lim tashkilotari soni o'sishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lishi, davlat-xususiy sherikchiligi esa xususiy tadbirkorlik subyektlarini maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etishning asosiy mexanizmiga aylanishi lozim.

Maktabgacha ta'limning hammabopligini, shu jumladan respublikaning olis tumanlarida hamda maktabgacha ta'limning standart shakllarini kengaytirish qiyin bo'lgan joylarda ta'minlash yangi muqobil shakllarni joriy etish hisobiga ham amalga oshirilishi lozim.

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

1) O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturlari doirasida va boshqa manbalardan ajratiladigan mablag'lar hisobidan yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

2) maktabgacha ta'lim sohasida qulay investitsiya muhitini yaratish, xususiy sektorni maktabgacha ta'lim tashkilotarining quvvatlarini oshirishga yanada rag'batlantirish va manfaatdorligini oshirish;

3) maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchiligini, jumladan uning quyidagi shakllarini yanada rivojlantirish:

- mavjud davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarini rekonstruksiya qilish va jihozlash sharti bilan xususiy sherikka nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini tashkil qilish uchun yer uchastkalarini yoki mavjud davlat ta'lim muassasalari binolarini bepul asosida berish;

- ko'p kvartirali turar joy binolari quruvchilari uchun davlat buyurtmasini joylashtirish;

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarini xususiy sherikka ishonchli boshqaruvga berish;

- konsessiya asosida qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun yer uchastkasi yoki bino ajratish;

- homiylik va boshqalar;

4) fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarini nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini tashkil qilishda uslubiy qo'llab-quvvatlash;

5) bo'sh turgan davlat mulki obyektlari va sobiq maktabgacha ta'lim tashkilotarining ishlayotgan binolari negizida maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini tashkil qilish maqsadida ularni xatlovdan o'tkazish;

6) hamma joyda bolalarni umumiy boshlang'ich ta'limga bepul majburiy bir yillik tayyorlashning yagona tizimini joriy etish;

7) maktabgacha ta'limning moslashuvchan ish jadvali hamda rivojlantiruvchi, tuzatuvchi xizmatlar va tadbirlarning keng ko'lamini o'z ichiga olgan quyidagi muqobil shakllarini joriy etish va rivojlantirish;

Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish

Maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir.

So'nggi vaqtlarda ushbu yo'nalishda Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimini (EMIS), shuningdek, bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotariga Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portali orqali qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tizimlarini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ilg'or o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'limning hozirgi holati telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirishni, maktabgacha ta'lim tashkilotarining keng polosali Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlashni, ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllarini va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etish maqsadida quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda:

1) Vazirlik axborot xavfsizligining munosib darajasini ta'minlash, yagona axborot maydonini yaratish;

– har xil yoshdagi bolalar uchun qisqa muddatli maktabgacha ta'lim guruhleri – “Pley-guruhlar”;

– maktabgacha yoshdagi bolalarga uyiga borib maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish dasturi — “Nome visits”;

– maktabgacha ta'lim tashkilotari korporativ guruhleri va boshqalar;

8) yengil qurilish konstruksiyalari va zamonaviy energiya samarador materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda, shinamlik va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq quriladigan maktabgacha ta'lim tashkilotarining yangi binolar loyihalarini ishlab chiqish (shu jumladan rivojlanishida jismoniy va ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar uchun to'siqsiz muhit elementlarini hisobga olgan holda);

9) maktabgacha ta'lim tashkilotari tarmog'ini kengaytirish va samarali tashkil qilish zaruratini hisobga olgan holda, qurilayotgan turarjoy komplekslari va boshqa obyektlarni kerakli ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlash;

10) respublikaning barcha maktabgacha ta'lim tashkilotarini ichimlik suvi, isitish tarmog'i, elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan, shu jumladan zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan bosqichma-bosqich ta'minlash;

11) ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning variativligi hisobiga rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish;

12) maktabgacha ta'limning bola shaxsini shakllantirishdagi roli va muhimligi haqida tushuntirish tadbirlarini olib borish, ushbu faoliyatga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va ota-onalarni faol jalb qilish.

2) maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish sohasida ilg'or xalqaro tajribani o'rganish, umumlashtirish va joriy etish maqsadida xorijiy mamlakatlarga o'quv safarlarini tashkil qilish;

3) maktabgacha ta'lim sohasida dasturiy vositalar, axborot ma'lumotlar bazalari, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatida qo'llash;

4) Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimini (EMIS) yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ma'lumotlarni kiritish va tezkor almashish uchun mobil ilovalarni yaratish;

5) o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta'lim resurslari, uydan turib masofali ta'lim berish va ota-onalar bilimini oshirish texnologiyalarini joriy etish;

6) maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatiga integratsiya qilish;

7) innovatsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar, startap-loyihalar tashabbuskorlari, olimlar, moliyaviy institutlar va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;

8) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilimlari va malakasini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish;

9) birinchi bosqichda har bir tuman tayanch maktabgacha ta'lim muassasasini, keyinchalik esa respublikaning har bir maktabgacha ta'lim muassasasini Internet tarmog'iga chiqadigan personal kompyuterlar bilan ta'minlash.

Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limni boshqarish tizimida institutsional islohotlar amalga oshirildi:

- Vazirlik va uning joylardagi hududiy bo'linmalari tashkil etildi;

- zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish maqsadida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarida Kuzatuv kengashlari tashkil etildi;

- maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi, uning asosiy vazifalari maktabgacha ta'lim tashkilotarining moddiy-texnik holatini yaxshilash, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini hamda Vazirlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni moliyalashtirishdan iborat;

- Toshkent shahrining uchta tumanida hamda Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanida sinov rejimida jon boshiga normativ moliyalashtirish joriy etilmoqda;

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ularga qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish huquqi berilgan.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'limni boshqarish va moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi, ular qatorida:

1) maktabgacha ta'lim tizimida davlat talablarining monitoringi va ularga rioya etilishining samarali mexanizmlarini yaratish;

2) Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning hududiy bo'linmalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarga axborot berishning zamonaviy shakllarini joriy

etish, jamiyat va biznes bilan o'zaro hamkorlikda ortiqcha ma'muriy ovoragarchiliklarga barham berish;

3) Vazirlikning boshqaruv jarayoniga ishni rejalashtirish va tashkil qilishning zamonaviy innovatsion usullarini, sifat menejmenti tizimlarini, aniq natijalarga erishishga qaratilgan maqsadli indikatorlarni, xodimlarni tanlab olish, motivatsiya qilish, rivojlantirish va baholash usullarini joriy etish;

4) jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni, jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish;

5) maktabgacha ta'lim tashkilotarining turlari, shakllari va ixtisoslashtirilganligini hisobga olgan holda, butun respublika bo'yicha maktabgacha ta'limni jon boshiga normativ moliyalashtirishni izchil joriy etish;

6) maktabgacha ta'lim sohasida budjetdan moliyalashtirishni boshqarishdagi yangi yondashuv sifatida, maktabgacha ta'lim tashkilotari xizmatlariga davlat buyurtmasini joriy etish;

7) davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarining ishlashdan maqsadlarini hamda tovarlar va xizmatlarni tabiiy ko'rinishda iste'mol qilishning oqilona me'yorlarini hisobga olgan holda ularni moliyalashtirishning yangi normativlarini ishlab chiqish hisobiga maktabgacha ta'lim xizmatlaridan keng aholi qatlamlari foydalanishini ta'minlash;

8) moliyaviy nazorat, maktabgacha ta'lim tashkilotari tomonidan budjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

9) maktabgacha ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish, ular ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish

Sifatli maktabgacha ta'limni berish asoslaridan biri boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmi hisoblanadi.

O'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar bajarildi. Chunonchi, "Maktabgacha ta'lim" bakalavriat ta'limi yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish kvotalari oshirildi, mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi.

Respublika maktabgacha ta'lim tashkilotari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv-metodik markazi negizida Maktabgacha ta'lim tashkilotari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi va unga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahlil qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi:

1) xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'lim tizimini yaratish;

2) ta'lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta'lim standartlari, o'quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o'qitish usullari va treninglari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

3) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati

samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;

4) ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo'li bilan maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil qilish uchun, shu jumladan mamlakat hududlarida, ta'lim muassasalari sonini oshirish;

5) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarida stajirovka o'tashini tashkil qilish;

6) Vazirlikning pedagogika kollejlari faoliyatini tashkil qilish, ularni malakali professor-o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

7) xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan uzoq muddatli munosabatlarni yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasida ularning filiallarini ochish;

8) tajriba almashish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning muassasalari bilan samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish;

9) o'zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta'minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

10) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

11) maktabgacha ta'lim tashkilotari rahbarlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro'yxatini o'z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

12) strategik boshqaruv, moliyaviy va NR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash

Maktabgacha ta'lim tashkilotarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog'lom ovqatlanishini, ular sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish xizmatlari bilan ta'minlash, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotarida bunday xizmatlarni ko'rsatish qisman autsorsing shartlari asosida tadbirkorlik subyektlariga berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimidagi tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo'yicha chora-tadbirlar faol qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifalarini samarali hal qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va yetkazib beruvchilarning narx siyosatiga amal qilishini nazorat qilishning shaffof markazlashtirilgan tizimini yaratish;

2) tayyor taomlarni tayyorlash va maktabgacha ta'lim tashkilotariga yetkazib berish uchun ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini, jumladan outsorsing asosida jalb qilish;

3) maktabgacha ta'lim tizimida sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami xizmatlari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

4) bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotaridagi ta'minoti uchun munosib, jumladan, to'laqonli, to'g'ri, balanslashtirilgan, sog'lom ovqatlanish, asoslangan tibbiy ko'rsatmalarda belgilangan hajm va tezlikdagi, ko'ngilochar mashg'ulotlar va bilim olish elementlari mavjud faol o'yinlar va mashqlardan iborat sharoitlarni yaratish;

5) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarga barvaqt kompleks yordam berish tizimini takomillashtirish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarda asosiy kompetensiyalarni zaruriy sifat darajasida shakllantirishga erishish, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash.

Konsepsiyani amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

- barcha bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim olish uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlovchi maktabgacha ta'limning samarali innovatsion tizimining shakllanishi;

- maktabgacha ta'limni insonning butun hayoti davomidagi uzluksiz ta'limning birinchi bosqichi sifatida belgilash, bolani

shaxs sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda uning roli oshirilishi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarining namuna va turlari xilma-xilligi asosida maktabgacha ta'lim tizimida institutsional o'zgarishlar amalga oshirilishi, mazkur sohada sog'lom raqobat muhitining yaratilishi;

- zamonaviy energiya va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotarining bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashning kengaytirilishi, ularning o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yinlar va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar, mebel, kompyuter texnikasi, o'quv uskunalari bilan jihozlanishi;

- maktabgacha ta'lim sohasiga xususiy sektorning jalb qilinishi, uning ijtimoiy javobgarligi oshirilishi, moliyalashtirish manbalarining kengaytirilishi va maktabgacha ta'lim xizmatlari turlarining ko'payishi;

- maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning ko'paytirilishi, maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda budget mablag'laridan foydalanish samaradorligining oshirilishi, pedagog xodimlar mehnatiga munosib haq to'lashning ta'minlanishi;

- maktabgacha ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-davlat tizimi joriy etilishi;

- olti yoshli bolalarning majburiy bir yillik bepul umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorlash bilan to'liq qamrab olinishining ta'minlanishi;

- 3-7 yoshgacha bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishining ta'minlanishi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotarida pedagog xodimlar soni 247,7 mingtagacha yetkazilishi.

1. Konsepsiyaning amalga oshirilishini tizimli monitoring qilish, umumiy muvofiqlashtirish, respublikada maktabgacha ta'limning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammoli masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

2. Konsepsiyani amalga oshirish monitoringi Konsepsiyada ko'zda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli va to'laqonli bajarish bo'yicha vakolatli organlar faoliyatini baholash indikatorlari asosida amalga oshiriladi.⁴

Ushbu konsepsiyani 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Konsepsiya o'rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Hujjat malakali pedagogik kadrlarining yetishmovchiligi, davlat MTMLarining to'lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi, hamda davlat MTMLarining o'quv-metodik materiallari bilan past darajada ta'minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi.

Qabul qilingan Konsepsiyaga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

• maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish (Maktabgacha ta'limning davlat standartini ishlab chiqish, MTM tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori vositalari bilan ta'minlash normativlarini tasdiqlash, muqobil maktabgacha ta'lim shakllarini amalga oshirish tartibini ishlab chiqish);

• maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish («Birinchi qadam» davlat dasturini va inklyuziv ta'limni keng miqyosda tatbiq etish, o'quv materiallarini ishlab chiqish, maktabgacha va boshlang'ich ta'limning bog'liqliligini ta'minlash);

• qamrovni orttirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim olishlari uchun teng huquqlikni ta'minlash, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish (yangi MTMLarni qurish va eskilarini rekonstruksiya qilish, bepul bir yillik maktabga tayyogarlikni keng miqyosda tatbiq etish, muqobil maktabgacha ta'lim shakllarini rivojlantirish, respublikadagi barcha MTMLarni kommunal xizmatlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash);

• innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish (axborot ma'lumotlar bazasini va multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish, uy ta'limi va ota-onalarning ma'lumot olishi uchun raqamli ta'lim resurslarini tatbiq etish, respublikaning barcha MTMLarini kompyuterlar bilan ta'minlanishini va Internet tarmog'iga ulanishini bosqichma-bosqich amalga oshirish);

• maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning shaffofligini va samaradorligini ta'minlash (samarali monitoring mexanizmlarni yaratish, manfaatdor shaxslarga ma'lumotlarni taqdim etish, muomalalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, chet el investitsiyalarini va grantlarini jalb qilish, me'yoriy kishi boshiga moliyalashtirishni birin-ketin tatbiq etish);

• kadrlarni tanlashda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish (xalqaro ta'lim standartlarini tatbiq etish, chet el ekspertlarini jalb qilish va chet elga tajriba orttirish safarlarini tashkil etish, xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, kadrlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish);

⁴ Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi, -T.:2008.

• MTMLarda bolalarning sog'lom va muvozanatli ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash (MTMLarni mahsulotlar bilan ta'minlanishining markazlashtirilgan monitoring tizimini yaratish, autsorsing shartlari asosida maxsuslashtirilgan korxonalarni jalb qilish, alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kompleks yordamni takomillashtirish).⁵

Nazorat savollari

1. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dastur qachon qabul qilindi va unda nimalar belgilandi?

2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi haqida ma'lumot bering.

3. Qabul qilingan Konsepsiyaga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini sanab bering.

4. Konsepsiyani amalga oshirishdan qanday natijalar kutilmoqda?

5. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.М.Каюмова "Мактабгача педагогика". "ТДПУ нашриёти", Т.: 2013 й.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. -T.:O'zbekiston, 1997.

3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, -T.:O'zbekiston, 1997.

4. <https://www.xabar.uz/uz/talim/maktabgacha-talim-tizimini>

5. <https://lex.uz/docs/-4327235>

⁵ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. , -T.:O'zbekiston, 1997 y.

II MODUL. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

3-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI

Reja:

1. Davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillari.
2. Davlat talablarining tarkibi.
3. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi.

Tayanch so'z va iboralar: *maktabgacha ta'lim, rivojlanish, rivojlanish sohasi, kichik soha, bola kompetensiyasi, integratsiya, inklyuziv ta'lim, "Men" konsepsiyasi*

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga sharh: Uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblangan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Kuzatishlar xulosasiga ko'ra, xalq ta'limi vazirligining davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikdagi

faoliyati aksariyat hollarda maktab ta'limini rivojlantirish bilan cheklanib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalar qamrovini oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Bolalarning qiziqish va intilishini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim-tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish orqali ularni ona vatanga muhabbat ruhida kamol toptirish masalasi davr talabidan ortda qolayotgani sababli maktabgacha ta'limning boshqaruv tizimi qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaga bog'liq. Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o'zni nechog'li muhimligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 16-avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, tizimning boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotariga 5-6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralari belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda quyidagi keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, maktabgacha ta'limni har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini maktabgacha ta'lim qismi bo'yicha amalga oshirishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularga rioya etilishini nazorat qilish;

maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda metodik rahbarlik qilish;

o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotarida yosh bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalari yanada chuqur singdirish, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetini mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyati samaradorligini oshirish;

pedagog va rahbar xodimlarning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish, ta'lim muassasalarini yuqori malakali, zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan ta'minlash;

mazmun va sifat jihatidan zamonaviy talablarga javob beradigan, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'quv

va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etilishini tashkil etish;

maktabgacha ta'lim tashkilotarida davlat talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizning ta'lim sohasida erishgan yutuqlarini konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar orqali xalqaro darajada keng targ'ib qilish, xalq ta'limi tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotari tarmog'ini rivojlantirish, ular o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish.

Qaror bilan belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida:

maktabgacha ta'lim tizimi va uni rivojlantirish uchun alohida e'tibor qaratilib, eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida har jihatdan zamonaviy tizim yaratiladi;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish orqali maktabgacha ta'lim har tomonlama rivojlantirilib, tarbiyalanuvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasi yanada yuksaltiriladi;

o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va usullari joriy etiladi;

bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan qisqa muddatli guruhlar tarmog'i kengaytiriladi;

maktabgacha ta'lim tashkilotarining moddiy-texnika bazasi yaxshilanadi;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotari tarmog'i rivojlantirilib, ular o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish orqali ta'lim xizmatlarining turlari ko'paytiriladi;

bo'sh turgan va foydalanilmayotgan davlat bino va inshootlaridan samarali foydalanishga erishiladi;

5-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'limga 100 foiz qamrab olish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta'lim tashkilotari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni (bundan buyon matnda bolalar deb yuritiladi) har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat'iy nazar, quyidagi ta'lim muassasalariga qo'llaniladi:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotari;
- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotari;
- maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo'lgan "Mehribonlik" uylari.

Maktabgacha ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim turlari bo'yicha pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan muassasalar, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar mazkur Davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarining maqsad, vazifa va asosiy tamoyillari

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

kichik soha — sohaning kichik guruhlarini. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

bola kompetensiyasi — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlari;

integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

inklyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

"Men" konsepsiyasi — bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi;

refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.

Davlat talablarining maqsadi — mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

— maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

— milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

— ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

— kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida tatbiq etiladi:

— bolaning noyobligi;

— "Men" konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;

— bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;

— bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;

— bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

Davlat talablarining tarkibi

Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi. Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohaslariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

8. Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

— jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

— ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

— nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

— bilish jarayonini rivojlanishi;

— ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

— yirik motorika;

— mayda motorika;

— sensomotorika;

— sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

— “Men” konsepsiyasi;

— hissiyotlar va ularni boshqarish;

— ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

“Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

— nutq va til;

— o'qish malakalari;

— qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

— intellektual-anglash malakalari;

— elementar matematik malakalar;

— tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

“Ijodiy rivojlanish” soha quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

— dunyoni badiiy tasavvur etish;

— badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

— go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha);

— erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

— kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);

— o'rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);

— katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);

— maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilayotgan talablar

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHI		
Kichik soha: Yirik motorika		
Talab: Bola o'z tanasi va uning a'zolarini boshqaradi, maqsadli to'g'ri harakatlanadi		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
boshi va ko'kragini ko'taradi; orqasidan qorniga va qayta o'giriladi; yordamsiz o'tiradi; oyoqlarini izlaydi va topib, og'ziga tortadi; turli yo'nalishlarda emaklaydi; to'rt oyoqlab harakatlanadi; tirgakka suyangan holda oyoqda turadi; kattalar yordamida va yordamsiz oyoqda turadi; yura boshlaydi; kichik to'siqlar ustidan xatlab o'tadi.	kattalar yordamsiz turli yo'nalishlarda yuradi; tizzasiga o'tiradi; yuguradi; engashib o'yinchoqlarni oladi; zinapoyadan yuqoriga qadama-qadam ko'tariladi.	bir oyoqda turib muvozanatni saqlaydi; mustaqil zinapoyadan ko'tariladi va tushadi; tepalikdan sirg'anib tushadi; ikki oyoqlab bir joyda sakraydi, oldinga siljib sakraydi; kichik to'siqlar ustidan sakrab o'tadi; yopiq eshikni ochadi, eshikdan kiradi va chiqadi; uch oyoqli velosipedda uchadi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolani sevimli	bolaga tortish,	bolaning harakat

o'yinchog'i yaqiniga emaklab kelishini rag'batlantirish; bola o'tirgan holatdan yotgan holatga tushishi va ko'tarila olishi uchun yumshoq joyni ta'minlash; bolani qorindan orqasiga aylanishiga va qorniga o'girilishiga rag'batlantirish; "men tomon emakla", "o'tir" ko'rsatmalari orqali bola bilan hamkorlikda o'yinlar tashkil qilish; bola xatlab o'ta olishi uchun uni "past predmetlar" bilan ta'minlash; vazifani murakkablashtirish maqsadida predmetlar sonini (masalan, kubiklarni) asta-sekin ko'paytirib borish; bola qiziqayotgan predmetga emaklab yoki xatlab yetishishi uchun imkoniyat	cho'zish, ko'tarish imkonini beruvchi predmetlarni taklif qilish; bola bilan qo'l va oyoqlarni harakatlantirib va xirgoyi qilib o'ynash; bola erkin harakatlanishi uchun xavfsiz va mustahkam muhit yaratish; bolaga aravacha, otchalar, kubiklar, yirik o'yinchoq mashinalar bilan o'ynashni o'rgatish; bola bilan to'g'ri yo'nalishda yurish, yugurish, emaklash, predmetlarni otish/ilib olish imkoniyatini beradigan o'yinlar o'ynash; ertalabki badantarbiyani ochiq havoda	tajribasini turli xil jismoniy mashqlar bilan boyitish; bola bilan yo'nalishini topishi va bo'sh joyda harakatlanishi uchun harakatli o'yinlar o'tkazish; bolaga kichik tepalikka chiqish va tushishida ko'maklashish; bolalarni harakat faolligini tashkillashtirishda jamoaviy shakllarga jalb etish; tanish harakatlarni birgalikda oson va erkin, bir maromda va kelishgan holda bajarish; polda turli kataklar, yo'lakchalar, doirachalar chizish hamda bolaga quvonch va xursandchilik bag'ishlaydigan mashqlar bajarish.
--	---	--

yaratish.	tashkillashtirish.	
Kichik soha: Mayda motorika		
Talab: Bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda muvofiqlashtiradi va ishlatadi		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
predmetlarni ushlaydi; predmetlarni bir qo'lidan ikkinchi qo'lga oladi; bir vaqtda bir necha predmetlarni qo'lida ushlaydi; barmoqlari bilan turli o'yinchoqlarni aylantiradi; oddiy o'yinchoqlarni bo'laklarga ajratadi va yig'adi; qarsak chaladi; qo'lini silkitadi.	ko'pincha bir necha varaqni o'tkazib, kitob betlarini varaqlaydi; predmetlarni teradi va birlashtiradi (piramida va hokazo); predmetlarni burab qo'yadi va burab oladi; "barmoqlar o'yini"ni o'ynaydi.	5-7 halqali piramidani bo'laklarga ajratadi va yig'adi; teshik shakliga mos keladigan yassi va hajmli shakldagi predmetlarni joylashtiradi; halqaga arqonni o'tkazadi; katta hajmli sodda mozaikalarni yig'adi; oson qurilish konstruksiyalarini quradi; kattalar yordamida yirik munchoqlarni ipga o'tkazadi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
har bir harakatni aniq tushuntirgan holda harakatni ko'rsatish; qurilmalar bilan	bolaga, ochish/yopish mumkin uy-ro'zg'ordagi	bola bilan muntazam shug'ullanish: hamkorlikda hayvonlarni, uy-

o'ynash; bolaga o'yinchoqlar berib, ularni o'rganib chiqishiga imkoniyat berish; bolaga xavfsiz predmetlar, shaqildoqlar, kichik piramidalar va boshqa predmetlarni kattalar nazorati ostida tanlashi va saralashi uchun berish.	o'yinchoq va predmetlarni taqdim etish (sinmaydigan qopqoqli bankalar, kastyullar).	ro'zg'or buyumlarini (likopcha, piyola, qoshiq) loydan yoki plastilindan yasash, ushbu barcha predmetlarni chizish; qumdonda bola bilan o'ynash, qumdonda kichkina o'yinchoqlarni bekitish mumkin, bola esa ularni o'zi qidiradi; qo'llar mayda motorikasining sensomotor muvofiqligini rivojlantirish uchun bog'lash o'yinlarini o'tkazish bolaga kubiklarni yig'ish, qulflarni yopish va ochish imkoniyatini berish va h.k.
Kichik soha: Sensomotorika		
Talab: Bola sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini boshqarishga qodir		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
muhitni qo'llari va og'zi	yoqtirgan taomi	koptokni boshqalarga

barmoqlarini qo'llab gubkani siqadi; yuzi, og'zi va qo'llarini artadi; butilkadan ichadi; cho'milayotganda suvni sachratadi.	mustaqil yuzi, og'zi va qo'llarini artadi; kiyimini yechishga harakat qiladi; stol va pollarni artishga taqlid qiladi.	taomlanadi; qo'l sochig'idan (salfetkadan) ovqatlanish jarayonida foydalanadi; suv muolajalariga ijobiy munosabat bildiradi.
--	--	--

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bola bilan birgalikda jo'mrakdan oqayotgan suvni kuzatish; qo'l yuvish jarayonini ko'rsatish; bolaga sovun berish, undan qanday foydalanishni ko'rsatish, hidlab ko'rish imkoniyatini berish, rangiga bolaning e'tiborini qaratish; cho'milish vaqtida gubka, mayda o'yinchoqlar va ko'pik bilan o'yinlar tashkil qilish.	bolaga qanday qilib tishni tozalash va og'izni chayish kerakligini ko'rsatish; bolaning urinishlarini rag'batlantirish; suv nimaga kerakligini tushuntirish; jarayon vaqtida turli she'rlardan foydalanish; chyotka bilan ishqalangandan so'ng kir joy qanday tozalanishini namoyish qilib	bolalarni mustaqil harakatga o'rgatish; bolalarni to'g'ri ovqatlanishga o'rgatish; bolaga organizm uchun nima foydali, nima zarar ekanligini tushuntirish; salomatlikni saqlash va mustahkamlashda shaxsiy namuna ko'rsatish
---	--	--

		berish.	
Kundalik hayotda, jamiyatda, tabiatda xavfsiz yurish-turish asoslarini shakllanishi.			
Tug'ilgandan 3 yoshgacha			
Bola hali juda kam tajribaga ega bo'lganligi sababli: bolani qarovsiz qoldirmaslik va travmatizmni oldini olish; o'yin va mustaqil harakat mobaynida doimiy ravishda bolaning kayfiyatini kuzatish; sokin va do'stona ohangda gapirish; bolaga o'yinchoq tanlashda ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga rioya qilish lozim.			
IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH			
Kichik soha: "Men" konsepsiyasi			
Talab: Bola o'zini o'z xususiyatlariga ega, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi. Bola mustaqil va o'ziga javob beradi			
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh	
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
o'z ismiga munosabat bildiradi, ishora va tovushlar bilan javob beradi; ayrim tana a'zolarini ko'rsatadi(boshi, qo'li, oyog'i, burni); ko'zguda o'z aksiga kuladi; kattalar e'tiborini turlicha o'ziga tortadi; istagan natijaga erishganda	ko'zguda, rasmda o'zini taniydi, o'z ismini biladi; kattalar talabi bilan uning istagi to'g'ri kelmaganda e'tiroz bildiradi; kattalar tomonidan o'zining harakatlariga bildirilgan rag'bat va tanbehni	o'zi va buyumlari haqida so'zlaydi (bu meniki); hamma ishni o'zi bajarishga intiladi; o'zi bajargan ishga sevinadi; o'z narsalarini taniydi; o'zini aniq bir jinsga mansubligini biladi; biror bir ishni mustaqil bajaradi.	

xursandchilikni ifodalaydi yoki norozilik bildiradi, injiqlanadi.	farqlaydi.	
---	------------	--

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolani ismi bilan chaqirish; bolaning tana a'zolarini ko'rsating va nomini aytish; bolaga ko'proq tabassum bilan qarash, u bilan birgalikda ko'zguga qarash; turli vaziyatlarda bolaning hissiyotlarini ta'riflab o'tish ("Zarina ayiqcha kelganiga xursand bo'lyapti", "Shahzoda charchadi, uyqusi kelyapti); bolaning harakatlariga ko'ra munosabatni bildirish.	bolaga o'zini ijobiy baholashida ko'maklashish: "men — yaxshi", men tirishqoq"; bolani boshqalar bilan bo'lashishga o'rgatishni boshlash; "o'g'il bolalar — kuchli", "qiz bolalar — muloyim" kabi stereotiplardan qochish; "man etiladi" va "...mumkin emas" iboralaridan voz kechish; bolaga noto'g'ri harakatlar oqibatini tushuntirgan holda uni yo'naltirish ("qum ko'zingga tushsa, ko'zing og'riydi").	bolani boshqalar bilan muloqotda o'zini tanishtirishga odatlantirish; bolani yutuqlari uchun albatta maqtash, yutuqlar kichikroq bo'lsa ham; bola bosh bo'ladigan holatlarni tashkillashtirish; tanbeh berishdan o'zini tiyish.
--	---	--

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Hissiyotlar va ularni boshqarish

Talab: Bola boshqalarning his-tuyg'ularini farqlashi va o'zinikini ifodalashga qodir

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

atrofdagilar kayfiyatini so'zlashuv ohangiga qarab aniqlaydi (onam xursand bo'lyapti, bobomning jahli chiqyapti); qarsak chaladi, xursand bo'ladi, biron-bir tovush yoki harakati atrofdagilarga ta'sir qilishini anglasa, ushbu tovush va harakatlarni qaytaradi.	kattalarning unga munosabatidan o'z hissiyotlarini, taassurotlarini namoyon qiladi; hayrat, zavq, qo'rqinchni ifodalaydi; mustaqil o'yin harakatlari bilan bog'liq bo'lgan quvonchni (xafalikni) ko'rsatadi.	muloqotda ochiq, ijobiy emotsional ruhiyat ustun, atrofdagilarga asossiz tajovuzkorlik ko'rsatmaydi; boshqalarga achinadi, qayg'uradi ; boshqa odamning emotsional holatini tushuna boshlaydi va shunga mos munosabat bildiradi.
---	--	--

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolaning har bir yutug'ini maqtash va qo'llab-quvvatlash; o'yinchoqlarga ovoz berib, turli hissiyot va harakatlarni tanish imkoniyatini berish; oilada emotsional ijobiy	bola bilan u bilan bog'liq bo'lgan turli vaziyat va hissiyotlarni muhokama qilish; bolaga rad javobini berilishi sababini	bola bilan suhbatda hissiyotlarni ta'riflovchi so'zlarni qo'llash; multfilm qahramonlarining yorqinligini tahlil qilish; hissiyotlarni
--	---	--

holatni yaratish va har kuni bola bilan o'ynash; o'yin vaqtida bolaga o'ziga ishonch hissini oshirish uchun yaqin turishga harakat qilish va barcha birgalikda bajarilayotgan harakatlarni bolaga aniq va lo'nda tushuntirish; baland tovush va shovqinlarni cheklash.	tushuntirish; bolaning jahli chiqqanda, xafa bo'lganda yoki o'zini yomon his etganda yonida bo'lish.	ifodalovchi so'zli o'yinlardan foydalanish, kayfiyat va his tuyg'ular haqidagi hikoyalar va she'rlarni o'qish.
--	--	--

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot

Talab: Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodir

0-1 yosh

1-2 yosh

2-3 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

salomlashadi, munosabat bildiradi, xayrlashayotganda qo'lini silkitadi; boshqa bola harakatini kuzatadi, kuladi yoki bog'lanishsiz gapiradi; kattalarning ko'p murojaatlariga javob beradi, biroq ba'zilarini	kattalar harakatiga taqlid qilishga intiladi; tovushi yoki harakati bilan boshqa bolaning diqqatini o'ziga tortadi; boshqa bolalar bilan o'yinda	kattalar harakatiga taqlid qiladi; kattalarni birga o'ynashga jalb qilishga intiladi; tengdoshlari yonida o'ynaydi; boshqa bolalar bilan o'yinchoqlarini bo'lishadi.
---	--	--

e'tiborga olmaydi.	qatnashadi; turi harakatlarni bajarib, hayvonlar harakatini o'xshatib harakatli o'yinlarda ishtirok etadi.	
--------------------	--	--

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolaga harakatlar namunasini ko'rsatish (salomlashish, xayrlashish); bolani kattalar murojaatiga javob bergani uchun maqtash; ochiq havoda boshqa bolalar bilan birgalikda sayr tashkillashtirish; harakatlarni so'zlar bilan qo'shib olib borish.	bolaga o'yin yoki harakatning umumiy qoidalarini tushuntirish (biz qumni o'ynaymiz, lekin qumni sochmaymiz); tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatga jalb qilish	bola bilan o'yin mobaynida boshqalar bilan hamkorlik qilishni shaxsiy namuna asosida namoyish etish; muloqot jarayonida chegara belgilash; bolani boshqa bolalar bilan taqqoslamaslik.
--	--	--

NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI

Kichik soha: Nutq va til

Talab: Bola nutqni tinglash va tushunishga, gapirish va muloqot qilishga qodir

0-1 yosh

1-2 yosh

2-3 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

ba-ba, ma-ma, bu-bu va	kundalik hayotda	istak va iltimosi
------------------------	------------------	-------------------

boshqa bo'g'inlarni talaffuz qiladi; bolalar qo'shiqlari, ovutmacholqlar, ertaklar, qisqa va sodda hikoyalarni tinglaydi; nomi tilga olingan obyekt tomon qaraydi (oyisi qani...); yorqin rasmlar kitobchalarni ko'rishga qiziqish bildiradi.	bajariladigan harakatlarni anglatuvchi so'zlar ma'nosini tushunadi; o'rindosh so'zlarni qo'llaydi, kattalar ketidan yengil so'zlarni qaytaradi; kattalar nutqiga taqlid qiladi; kitoblarni o'rganadi.	ifoda etadi; kattalar nutqini to'g'ri tushunadi; kattalarning oddiy topshiriqlarini bajaradi; harakatlarni nutq bilan birga olib boradi; so'zlardan foydalanadi; kitob o'qib berishlarini so'rashi mumkin; rasmlar bo'yicha kitobni taniydi.
---	---	--

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolani parvarishlash jarayonida (emizish, cho'miltirish, uxlashga yotqizish) u bilan gaplashish, tana a'zolari, kiyim, buyumlar nomini aytish; bolaga turli hikoyalar, ertaklar aytib berish, birgalikda yorqin kitoblarni tomosha qilish va bolani diqqat bilan tinglashga	bolaga kitob o'qib, turli hikoya va ertaklarni so'zlab berish; sayr davomida ko'rgan narsalarni muhokama qilish (kuchuk yuguryapti, bolakay maktabga ketyapti); bola bilan birga kitob do'konlari va kutubxonalarga	bola bilan muloqot vaziyatlarini yaratish, savollar berish; bolaga topshiriqlar berish, masalan, "qiyom uchun likopcha olib kel", "qizil qalamni ol", "kichik ayiqchaga qo'shiq aytib ber"; bolaning so'z boyligini turli didaktik o'yinlar, kuzatuv va
---	---	---

qiziqtirish; bola bilan muloqot mobaynida unga savollar berish va ma'nosi bo'yicha to'g'ri javobni takrorlashga undash.	borish; televizor ko'rish va elektron texnika qo'llashni chegaralash.	tomoshalar orqali boyitib borish; kitob xarid qilishda bolaga tanlash imkonini berish.
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI		
Kichik soha: Qo'l barmoqlari mayda motorikasi		
Talab: Bola asosiy harakatlarni egallagan, qo'llarning mayda motorli ko'nikmasiga ega		
0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR		
turli yuzalarda barmoqlari bilan guash (bo'yoq) yordamida chizadi (oyna, sellofan, qog'ozda).	ishlatayotgan buyumlarini barmoqlari bilan ushlaydi; (qalam, mo'yqalam, marker) betartib chiziqlarni chizadi.	turli erkin chiziqlar va noaniq aylanalar chizadi; turli yuzalarda turli shakllar chizadi; o'z ismining yozuvini taniydi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolani rasm yaratish uchun barmoqlaridan foydalanishga rag'batlantirish.	bolaga yirik harflarni taklif etish, ushbu harflarni qum orasiga bekitib birgalikda izlash; harflar shaklidagi	bolaga yechinish va kiyinish ketma-ketligini ko'rsatish; bola bilan turli topshiriqli o'yinlar o'ynash: stolga qoshiqlarni qo'yish.

pechenyelarni xarid qilish; stikerli kitoblardan foydalanish; bola soch o'rishga o'rganishi uchun sochli qo'g'irchoqlardan foydalanish.	non idishni olib kelish; bola bilan chizish, qirqish, yopishtirish va yelimlash; qum, xamir va shakllar bilan o'ynash; bolani kichik yutuqlari uchun doim rag'batlantirish.
---	---

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Intellektual-anglash malakalari

Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud

0-1 yosh

1-2 yosh

2-3 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

o'z o'yinchoqlarini tekshirish(o'rganish)ni boshlaydi: og'ziga soladi, uloqtiradi, bo'laklarga bo'ladi, taqillatib ko'radi, ikkitasini bir-biriga uradi va chiqayotgan tovushni tinglaydi; biror bir tovushni atrof-muhit bilan bog'laydi (masalan, mushukni "myau" bilan, kuchukni	rasmdagi predmetlarni taniydi; tabiat hodisalarini qisqa muddat ichida kuzatadi; ayrim sabzavot va mevalarni biladi va farqlaydi; hasharotlar (chuvalchaglarni) tegib ko'radi, chumolini	tana a'zolarini ko'rsatadi va ularning funksiyasini biladi; predmetlarning taktik xususiyatlarini biladi (yumshoq, qattiq, dag'al, silliq); predmetli rasmlar orqali jonli tabiat obyektlarining nomini biladi (hayvonlar, o'simliklar, qushlar);
---	--	---

"vov" bilan) atrofidagi obyektlarni kuzatadi.

kuzatadi), hayvonlar (uy hayvonlariga qaraydi, ularni ko'rsatadi), o'simliklar (gullarni yuladi, barglarni to'playdi) bilan qiziqadi.

tabiatning ayrim hodisalarini farqlaydi (yomg'ir, qor).

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolaga turli obyektlarni boshqarish imkonini berish; bolani bir-biriga mos o'yinchoqlarni jamlashga qiziqtirish — qo'g'irchoq kiyimi qo'g'irchoqqa mos kelishi bolaga atrofidagi yangi narsalarni ko'rsatish va uning munosabatini kuzatish; yangi obyektlarni qo'llagan holda bola bilan o'ynash; turli hayvonlar turli tovushlar chiqarishini namoyish qilish.	bola bilan toza havoda, fermada (uy hayvonlari), hayvonot bog'ida sayr qilish; ob havo va hissiyotlar haqida so'zlashish; yomg'ir yoki qor vaqtida bola bilan qor parchalari yoki yomg'ir tomchilarini kuzatish; ko'lmakka sakrash, qordan shakl yasash; varrak uchirish biror bir obyektни uzoq kuzatish.	turli fakturali predmetlarni ushlab ko'rishni va nomini aytishni taklif qilish; barglar, cho'plar, toshlar yig'ish hududda qush va hasharotlarni, akvariumda baliqlarni, ariqda yoki ko'lmakda suv harakatini kuzatish tabiat hodisalarini kuzatish, qor, ko'lmak, quyoshli quyunchalar, qum, suv va soya bilan o'ynash.
--	--	--

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Elementar matematik malakalar

Talab: Bola boshlang'ich matematik malakalarga ega

0-1 yosh

1-2 yosh

2-3 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

predmetlarni katta va kichikka ajratadi.

miqdorni "bitta", "ko'p"ga ajrata oladi.

predmetlarni rangi va shakliga qarab farqlaydi; predmetlarni kichigidan kattasiga qarab bir qator qilib joylashtiradi; shakllarni o'ziga mosini topadi (Segen doskasi).

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

turli o'lchamdagi kubiklarni oling va ularni katta va kichikka ajratishni ko'rsatish; bolaga raqamlar yozilgan kartochkalarni ko'rsatish; bolani sensor tajribasini boyitish maqsadida qo'lini ushlab turli shakllar ustidan yurgizish (boshi dumaloq, ko'zi

bolaga predmetlarning hajmi, og'irligi va uzunligini ta'riflab borish; bolaga sayr davrida elementar matematik savollar berish: biz qancha zinapoyani bosib o'tdik?, senda nechta o'yinchoq

bola diqqatini bir-biridan farq qiladigan o'lchamdagi predmetlar va ularning nomlanishiga qaratish (katta-kichik); predmetlarni shakli bo'yicha ajratish va nomini to'g'ri aytish malakasini shakllanishiga

kichkina).

bor?
bolani matematik bilimlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatga jalb qilish (menga bitta piyola olib kel, ikkita pechenye ber).

ko'maklashish (kubik, g'isht, shar); bolada atrof-olamni amaliy o'zlashtirish tajribasini ortishiga ko'maklashish; yotoqxon, mehmonxon, o'yin xonasi va boshqa xonalarni ajratishga o'rgatish; bola bilan birgalikda zinapoyalarni, qarsak va boshqalarni sanash.

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Talab. Bola o'zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o'rganishda faol

0-1 yosh

1-2 yosh

2-3 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

o'yinchoqlar va predmetlar bilan tajriba o'tkaza boshlaydi (ushlaydi, chiqaradi, bir-biriga joylashtiradi, bosadi, ochadi); bo'sh piyolani oladi va unga suv yoki sharbat quyib berishni so'raydi;

boshqalarning harakatini yoki tushib ketgan predmetni kuzatadi; quvonch yoki qoniqish hissini baxsh etuvchi harakat va

yaqin atrofidagi predmetlarni farqlaydi (o'yinchoqlar, idish-tovoqlar, kiyim, poyabzal, mebel); ayrim uy va yovvoyi hayvonlarni biladi; ayrim sabzavot va

predmetlar yoki insonlarning ko'zdan g'oyib bo'lishi va paydo bo'lishiga munosabat bildiradi.	tovushlarga erishish uchun predmetlar bilan harakatlanadi; harakatlarga taqlid qiladi yoki boshqalar imo-ishorasini takrorlaydi.	mevalarni farqlaydi kattalar yordamida qurilmalar quradi; o'z qurilmasi atrofida o'yin tashkillashtiradi; predmetlarni tegishli muhitga joylashtirishni biladi (jirafani hayvonot bog'iga, mashinani garajga).
---	--	--

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolani o'yinchoqlar bilan o'ynashdagi mustaqilligini qo'llab-quvvatlash; bolaga tajriba o'tkazish uchun turli materiallarni turli miqdorda berish; piyolani olish, bolaga ichi bo'shligini ko'rsatish, biror bir suyuqlik bilan to'ldirish va bolaga ichi to'lganligini tushuntirish.	bola bilan xirgoyi qilib, tovushlar chiqarib, imo ishoralar bilan o'ynash; bolaga shakli, rangi, og'irligi turlicha bo'lgan o'yinchoq va predmetlarni berish; bola harakatiga munosabat bildirish; o'zgarishlar jarayonini ko'rsatish (puflash, sovun ko'piklarini	yaqin atrofdagi predmetlarni nomini to'g'ri aytish (o'yinchoqlar, idish-tovoqlar, kiyim-kechak, poyabzal, mebel); predmetlar rangi, hajmi va qanday materialdan qilinganligini ko'rsatish va tushuntirish (qog'oz, daraxt, mato, loy); hayvonlar haqida oddiy dalillarni keltirish; mustaqil qurish
---	--	---

	chiqarish); u bilan to'kilgan barglar ustida yurish, oynalarda tajribalar ko'rsatish.	istagini qo'llab-quvvatlash.
--	---	------------------------------

IJODIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish

Talab: Bola turli xil san'at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etadi

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

mutolaa davomida rasml bolalar ertagi va musiqani tinglaydi; she'rlarni tinglaganda kattalar ketidan harakatlarni qaytaradi (boshini qimirlatadi, qarsak chaladi); yorqin rangdagi rasmlarga e'tiborini qaratadi.	musiqa, tovushlarga munosabat bildiradi; bolalar kitoblarini varaqlaydi va undagi tanish ertak qahramonlarini biladi; kiyimdagi rasmlarga e'tiborini qaratadi; multfilm tomosha qiladi rasm chizish uchun ranglarni	sevimli kitobi va rasmlarni taniydi; ertaklardagi jarayonga o'z hissiyotlarini bildiradi; bo'yoq va mo'yqalam haqida bazaviy tushunchaga ega; loy va plastilindan foydalanadi; sevimli qo'shiqlarini tinglaydi; bolalar musiqiy instrumentlarini chaladi; teatrga qiziqish bildiradi;
---	---	---

	tanlaydi.	o'ziga moslab kiyim tanlaydi.
BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT		
bolaga kitobning bir qismini emas, balki rasmlarni namoyish etgan holda biror bir to'liq voqeani o'qishga harakat qilish; bolaga emotsional, hayvonlarga taqlid qilib, o'qish; bolani ijobiy hissiyotlarga undab o'qish; bolaga turli xavfsiz ijodkorlik predmetlarini berish; mumtoz musiqani qo'yish.	bolaga tomosha qilish uchun mo'ljallangan predmetlarni o'ziga jamlagan ish joyini tashkil qilib berish; bolaga chiroyli manzaralar tasvirlangan disklarni namoyish etish va ularni bola qo'li yetadigan joyda saqlash; bolalar bayrami va tadbirlarida ishtirok etish.	bolaga hayvonlarni o'xshatib, his-tuyg'u bilan o'qish; bolaning musiqa bilan bog'liq faoliyatini qo'llab-quvvatlash (fonli klassik musiqa, bolalar qo'shiqlari); master klass, bayram, xalq sayllarida ishtirok etishni davom ettirish.

IJODIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar

Talab: Bola atrofdagi borliqni ijodiy o'zgartirish malakasiga ega

0-1 yosh	1-2 yosh	2-3 yosh
-----------------	-----------------	-----------------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

musiqa tinglash mobaynida tanasi bilan raqs harakatlarini	kattalar yordamida ovutmachoqlar	o'z yoshiga monand she'rlarni aytadi; ovutmachiq va
---	----------------------------------	---

bajarishga intiladi; chiroyli predmet va narsalarga e'tibor qaratadi.	yodlaydi; chizilgan tasvirlarni barmoqlari bilan yurgizib chiqadi; sodda tasviriy shakllarni qo'li va barmoqlari bilan chizadi; qum yoki loyni ezig'ilyadi; sodda raqs harakatlarini bajaradi (qarsak chaladi, oyoqlari bilan harakatlanadi va hokazo); avval tinglagan musiqalarni taniydi.	to'rtliklarni aytayotganida imo ishoralar bildiradi; namuna asosida tegishli ranglarni tanlaydi; oddiy san'at shakllarini bo'yaydi; loy yoki plastilindan shakllar yasaydi; so'ralgan obyektning kubiklardan yasaydi; sodda pazl va mozaikani yig'adi; musiqa tinglaganda raqsga tushadi; boshqa bolalar bilan birgalikda qo'shiq aytadi; ritmga mos harakatlanadi; musiqa asosida so'ralgan harakatlarni bajaradi.
---	--	---

BOLANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA FAOLIYAT

bolaga quvnoq musiqalar qo'yish va birgalikda raqsga tushish; musiqaga monand qanday qarsak	bola tasavvurini rivojlantiruvchi muhit yaratish; bolaning musiqiy faolligini rivojlantiruvchi	bolaga mustaqil ishlashi uchun turli tabiiy materiallar, bo'yoq, yelim, qalam va plastilin va hokazolardan tashkil
---	--	--

chalishni ko'rsatish; musiqaga monand oyoq va qo'llar bilan qanday harakatlanishni ko'rsatish; alla aytish; bolani chiroyli did bilan kiyintirish va kiyim detallariga bolaning diqqatini qaratish.	bolalar qo'shiqlarini eshittirish; bolani taom tayyorlash, xonalarni bayramga tayyorlash jarayoniga jalb qilish; turli tabriknomalarni tomosha qilish, do'kon va salonlarda kompozitsiya yaratayotgan ishchilar faoliyatini kuzatish	topgan ish joyini tashkillashtirish; bolani chizishga rag'batlantirish; bola atrofidagi o'yinchoqlar, predmet va materiallarni vaqti- vaqti bilan o'zgartirib turish; bolani tasavvurini qo'llagan holda biror bir ertak qahramoni bo'lishga undash.
--	---	---

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilayotgan talablar

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHI			
Kichik soha: Yirik motorika			
Talab: Bola o'z tana a'zolarini boshqaradi, maqsadli to'g'ri harakatlanadi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
turli usullar bilan yuradi (to'g'ri, erkin, ko'rsatilgan yo'nalishda); kolonna, doira bo'lib saflana oladi; muvozanatni saqlab yuguradi; sport zinasida yuqori va pastga harakatlanadi; bir joyda ikki oyoqlab sakraydi; oldinga siljib sakraydi; aylana yoyi tagidan emaklab o'tadi; badantarbiya vaqtida mashqlarni takrorlaydi; uch oyoqli velosipedda uchadi.	oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan va tizzalarini yuqori ko'tarib yuradi; arqon ustida muvozanat saqlab yuradi; tizzalarini yuqori ko'tarib yuguradi; past to'siqlar ustidan sakrab o'tadi; arqonda sakrashga harakat qiladi; gimnastika skameykasi ustida qo'li bilan tortilib qornida suriladi; gimnastika narvonida harakatlanadi; samokatda uchadi.	oyoqlarini uchidan tovoniga almashtirib yuradi; to'siqlarni aylanib yoki xatlab o'tadi; gimnastika skameykasida muvozanatni saqlagan xolda, qadamba-qadam yuradi; qiya doska ustida to'g'ri va yoni bilan yuradi; yugurishning har xil turlarini bajaradi (ilonizi, zigzag, mokisimon, to'siqlarni yengib o'tib); turli usullar bilan sakraydi; bir necha predmet oralab emaklaydi; qornida yotib, qo'llari bilan tortilib	bir, ikki, to'rtta bo'lib saflanadi, doira bo'lib, qator bo'lib yuradi; yurishda turli topshiriqlarni bajaradi; yengil yuguradi (shiddat bilan, to'siqlarni yengib o'tib, yo'nalish va muvozanatni saqlagan holda); bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o'ngga va chappa almashtirib sakraydi; arqonda turli usullarda sakraydi; arqonli narvon,

		emaklaydi; gimnastika narvoniga o'rmalab chiqadi.	yo'g'on arqonda yuqoriga ko'tariladi; ikki oyoqli velosipedda uchadi.
--	--	--	---

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI

Kichik soha: Mayda motorika

Talab: Bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

xalqaga arqonni kirgizadi; mayda predmetlarni ma'lum bir tartibda taxlaydi; mustaqil ravishda o'yinchoqlarni qutiga joylashtiradi va undan oladi; kattalar yordamida	mustaqil tugmachalarini qadaydi va yechadi, kiyimi va poyabzali ilgaklarini o'zi taqadi; namuna asosida ipga mayda, o'rta, va yirik munchoqlarni teradi; qulflarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi; mayda	yuzalarda turli chiziqlar chizadi (asfaltda klassik o'yini); kichik, o'rta va katta o'yinchoqlarni qutiga hajmiga qarab joylashtiradi; murakkab konstruksiyalarni jamlaydi; qopchadagi o'yinchoqni paypaslab nomini ayta oladi;	tasavvurdagi predmetlarni qo'llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr) ko'rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o'yin faoliyati mobaynida mayda o'yinchoqlar bilan o'ynaydi; belgilangan chiziqlar
--	--	---	---

yirik hajmdagi munchoqlarni ipga o'tkazadi; buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi.	buyumlarni buraydi va bir biriga ulaydi (konstruktor qismlari); konstruktorning katta va kichik qismlaridan har xil predmetlar yasaydi; namuna asosida to'g'ri chiziq va aylana chizadi; ko'rsatilgan chiziq bo'yicha qog'oz, mato va salfetskani buklaydi; ko'rsatilgan chiziq bo'ylab qog'ozni qaychi bilan qirqadi.	to'g'ri chiziq bo'ylab qog'ozni mustaqil qirqadi.	bo'ylab qog'ozni batartib yirta oladi; mayda qisimli mozaika va pazllarni yig'adi.
---	--	---	--

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI

Kichik soha: Sensomotorika

Talab: Bola sezgi organlari yordamida o'z harakatlarini boshqarishga qodir

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	yosh
----------	----------	----------	------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

katta	koptokni yerga	koptokni	pastdan hoshi
-------	----------------	----------	---------------

koptoklarni masofaga, ikki qo'l bilan, o'tirib, turib irg'itadi; belgilangan nishonga predmetni irg'itadi; boshqa bolaga koptokni irg'itadi yoki otadi; silliq va notekis teksturaning farqiga boradi; ta'mni aniqlaydi; qo'g'irchoqli aravachani itaradi.	o'ng va chap qo'li bilan galma-gal uradi; galma-gal chap va o'ng tomon aylanadi; turli tekstura va yuzaning farqiga boradi; matrap bilan mayda uchayotgan, suzayotgan predmetlarni tutadi; sovun ko'piklarini uchiradi.	osmonga irg'itib, tutib oladi; uzatilgan koptokni turli usullar bilan ilib oladi; koptokni klyushka bilan to'siqlarora olib o'tadi; qumli xaltachani nishonga otadi; boshqa bolaga koptokni ikki qo'llab asosiy vaziyatdan uzatadi; turli analizatorlar orqali predmetni tadqiq qiladi (ko'zi bog'langan xolda, ta'miga qarab, paypaslab).	uzra koptokni irg'itadi; koptokni yer bo'ylab ilonizi qilib irg'itadi; chanada, rolikda, ikki oyoqli velosipedda uchadi; koptok bilan nishonni urib tushiradi (bouling); gardishni qo'lida, oyog'ida, belida aylantiradi; halqalarni halqa ustuniga otib tushiradi.
--	---	--	---

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI

Kichik soha: Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik

Talab: Bola sog'liqni saqlash malakalarini namoyon qiladi.
Bola xavfsiz sog'lom taom va hayot xavfsizligi qoidalarini haqida tushunchaga ega

3-4 yosh

4-5 yosh

yosh

6-7 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

mustaqil qo'li, yuzini yuvadi, tishini tozalaydi, sochiqdan foydalanadi; taroq va dastro'mol yoki salftkadan foydalanadi; ovqat vaqtida mustaqil qoshiq bilan foydalanadi, ovqatdan so'ng og'zini chayadi; xonada tartibni saqlaydi, o'zidan keyin o'yinchoqlarni yig'ishtiradi; mustaqil hojatxonaga boradi; xavfli bo'ladigan predmetlarni farqiga boradi.	vitaminlar va sog'lom ovqatlanish foydasini biladi; ovqatlanish oldidan qo'lini yuvadi; sanchqidan to'g'ri foydalanadi; o'z tashqi ko'rinishini tartibga keltiradi; hojatxonadan so'ng o'z-o'ziga xizmat qiladi; yordam so'ray oladi; xavfli bo'lgan predmetlar, joylar va moddalar nomini biladi (zinapoya, boloxona, ochiq oyna,	shaxsiy gigiyenaga rioya qiladi; stol atrofida ovqatlanish madaniyatiga rioya etadi; vitaminlar va ularni taomdagi foydasini biladi; salomatlik haqida qayg'urish muhimligini angelaydi; asosiy tana a'zolari va ularning funksiyalarini biladi; piyodalar uchun asosiy yo'l qoidalarini biladi; suv ichish foydasini angelaydi va mustaqil suv ichish rejimini bajaradi;	o'zining tashqi ko'rinishiga e'tibor beradi; jismoniy mashqlarni mustaqil bajaradi; tabiat burchagidagi o'simliklar va jonzotlarni parvarishlaydi; salomatlikka zararli bo'lgan xulq shakllarini angelaydi (chekish, ichkilikbozlik, olov bilan o'ynash va hokazo); bog'chada, ko'chada, transportda yurish qoidalariga rioya qiladi; piyodalar va velosipedchilar uchun yo'l
--	--	---	---

issiq suv, olov, dori, o'tkir asboblari, elektr); notanish insonlar bilan ketish mumkin emasligini tushuntiradi; qanday qilib gavdani to'g'ri tutish kerakligini tushuntirib bera oladi.	xavfsiz xatti-harakatning asosiy qoidalarini biladi va ularga rioya qiladi; yordam zarur bo'lganda kattalarga murojaat qilish kerakligini biladi; xavfli faoliyatlar nomini aytib beradi: xavfli joylarda o'ynash (mashina qatnovi yo'laklarida, qurilish yaqinida, notanish suv havzalarida, ko'l, oqar suvlarda cho'milish), velosipedda mashina qatnovi yo'llarida.	qoidalarini biladi; yong'in xavfsizligi -101; milliy gvardiya-102; tez yordam -103; gaz xizmati -104 telefon raqamlarini biladi; xavfli vaziyatlarda qanday yo'l tutishni biladi va tushuntiradi supermarketda, shaharda, qishloqda, dalada yo'qolib qolsa, o'zini qanday tutish kerakligini biladi.
--	---	--

IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: "Men" konsepsiyasi

Talab: Bola o'zini o'ziga xos xususiyatlari bilan, ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi, mustaqil va o'z xatti-harakatiga javob beradi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
o'zi haqida — "men" deb birinchi shaxs nomidan gapiradi; o'zi haqida so'zlaydi (ismi, familiyasi, yoshi, jinsi va boshqalarni biladi); o'z yaqin insonlariga murojaat qiladi va yordam so'raydi; o'ziga do'st tanlaydi va u bilan o'ynaydi; o'z oilasi va yaqinlariga qiziqish bildiradi; o'z ehtiyojlarini bildiradi; ortib borayotgan o'ziga ishonchni bildiradi.	o'z xohish istaklari, qiziqishlarini bildiradi; o'yin davomida rollarni bajaradi; o'z xatti-harakatlariga javob beradi ("buni men qildim"); kattalar iltimosini (topshiriqni) bajaradi; mashg'ulot davomida diqqatni jamlaydi; yutuqqa motivatsiya bildiradi; omadsizlik, mag'lubiyatda qayg'uradi; turli hissiyotlar va	o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi; o'zining qaysi millatga mansubligini biladi; o'zining xohish-istaklari va qiziqishlarini aniq belgilaydi; o'z hissiyotlarini namoyon qiladi; o'z o'zini baholashga qodir; mustaqil o'ziga faoliyat turini tanlaydi; g'oyalar taklif etadi, tashabbuskor xayrixoh va ochiqko'ngil.	mustaqillikka intiladi; o'zining oilaviy, gender mansubligiga ijobiy his tuyg'ularni angalaydi va farqlay oladi; o'zining millati, tili va o'z madaniyatining muhim elementlarini biladi; o'ziga yuklatilgan majburiyatlar asosida faoliyatni tashkil qiladi; shaxsiy qarorlarini qabul qilishga qodir; boshqalarga namuna bo'lishga harakat qiladi.

kayfiyatlarni namoyish etadi; o'z o'yini uchun joy hozirlaydi.		
---	--	--

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Hissiyotlar va ularni boshqarish

Talab: Bola o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini anglashga va o'zining hissiyotlarini moslashtirishga qodir

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

ertak, hikoya, multfilmlar qahramonlariga hamdardlik bildiradi; quvonch, qayg'u kabi hissiy holatni tushunadi; o'z kechinmalari va hissiyotlarini namoyon etadi ("menga yoqadi", "men yoqtirmayman"); boshqa	bolalar bilan o'yin davomida samimiy munosabat bildiradi; va o'z o'yinchoqlari bilan o'rtoqlashadi; kattalar bilan eslatmasiz salomlashadi va xayrlashadi; o'z harakatlariga baho beradi;	asosiy hissiyotlar sababini tushunadi; kimnidir xafa qilsa, o'zini aybdor his qiladi; yaxshi yoki yomon xulqqa baho bera oladi; o'yin mobaynida g'oliblikdan quvonishni biladi; yaqin insonlari va do'stlari bilan o'z hissiyotlari va kechinmalari bilan	o'z hissiyotlari nazorat qiladi; turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsional munosabat bildiradi; o'z hissiy holatini izohlab berishi mumkin; boshqa insonlar yoki badiiy asarlar qahramonlari hissiyoti haqida gapiradi; o'zini yomon
--	---	---	---

bolaning hissiyotlarini aniqlaydi va so'z bilan ifoda etadi; boshqalarga hamdardlik bildiradi; syujetli-rolli o'yinlarda ishtirok etadi; o'z oilasi haqida so'zlar ekan, nima yoqishi va yoqmasligi haqida gapiradi.	kattalarga murojaat qiladi va o'z fikrini bayon qiladi; sovg'a va bayramlarga quvonadi.	o'rtoqlashadi; qo'rquv va xavfni tushunadi; tushunarli asarlarni qiziqish bilan tinglaydi va ularga hissiyotlarini namoyon etadi.	his etayotganlarga hamdardlik bildiradi va yupatadi.
--	---	---	--

IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISH

Kichik soha: Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot

Talab: Bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodir

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

o'z oila a'zolarini biladi; kattalar harakatiga taqlid qiladi; o'z harakatlari natijasiga	o'yin faoliyati davomida muloqotga kirishadi; o'yinda o'zaro harakatda bo'lib,	muloqot davomida o'z fikrini, hissiyotlarini va taassurotlarini namoyon etadi; oila va guruhda	kattalar va tengdoshlar bilan oson muloqotda bo'ladi; qiyin vaziyatlarda
---	--	--	--

erishishda qat'iylik bildiradi; kattalar va bolalar bilan birgalikda o'ynaydi; bolalar salbiy harakatiga o'z munosabatini bildiradi; jamoaviy o'yin faoliyatida qatnashadi; tengdoshlariga yaxshilik istaydi.	ijtimoiy rolni qabul qiladi; guruh qoidalarini bajaradi (o'yinchoqlar ni joyiga taxlaydi, kiyimlarini tartibga soladi va hokazo); o'z oila a'zolariga samimiy munosabat bildiradi va uyida ma'lum bir qoidalarga rioya qiladi; o'z do'stlari haqida so'zlab berishi mumkin; kattalar harakatlari va xulq modelini imitatsiya qilgan holda ularga taqlid	tashkil etilgan mehnat faoliyatida ishtirok etadi; o'z suhbatdoshiga iltimos yoki ma'lumotni ayta oladi; mustaqil, kattalardan bevosita mustaqillikni erkin namoyon etadi, yordam ko'rsatishga tayyor; tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishadi; tushunchalarda yoritilgan ijtimoiy xulq qoida va me'yorlariga bo'ysunadi (mumkin, ma'n etiladi, yaxshi, yomon, kerak); boshqa bolalar	amaliy yechim qidiradi; boshqalar xatti-harakatiga o'z taassurotlarini bildiradi; o'z galar yutug'iga quvonganligini namoyon etadi; nizolarni hal etishda bir necha metodlardan foydalanadi (tinchlantiradi, o'z o'yinchog'ini beradi, muloyim so'zlar aytadi); o'yinlar o'ylab topadi, syujetli rolli o'yinlar, turli ertaklarni sahnalashtirish da ishtirok etadi.
---	---	--	--

	qiladi; kattalar nazoratisiz topshiriqlarni bajara oladi.	bilan doimiy do'stona munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydi.	
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI			
Kichik soha: Nutq va til			
Talab: Bola nutqni tinglaydi va anglaydi, so'zlashadi va muloqot qiladi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
o'zining ayrim harakatlarini so'zlar bilan sharhlaydi; rasmda ko'rgan narsasi haqida so'zlaydi; kattalarning turli savollariga javob beradi (yaqin atrofiga tegishli); muloqot davrida faollik bildiradi; biror bir parchani tinglab, tanish asarning	boshlangan hikoyani davom ettira oladi; voqea-hodisalar to'g'risida muhokama davrida savollar beradi va o'z fikrini bayon etadi; berilgan savolni tushunadi va unga javob beradi; muloqotda	kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi; umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri qo'llaydi (meva, sabzavot, daraxtlar, qushlar, idish-tovoq); o'ziga nisbatan predmetlar joylashuvini ta'riflaydi (oldimda, stolda); so'zlarni	o'z ona tilida erkin so'zlashadi; so'z turkumlarini yoshiga monand mustaqil, grammatik to'g'ri qo'llaydi; gapdan sinonim va antonimlarni topa oladi va berilgan so'zlarga ularni moslaydi; ko'p ma'noli so'zlarni turli ma'nolarini farqlaydi;

nomini aytadi; kichik she'rni yoddan aytadi; kattalar tomonidan aytilgan tanish hikoya, ertakni davom ettiradi yoki tugallaydi; didaktik o'yinlar o'ynaydi.	fe'l va sifatlarni faol qo'llaydi; ot va fe'llarni qo'llagan xolda murakkab bo'lmagan gaplar tuzadi (shifokor kasallarni davolaydi, sotuvchi sabzavotlarni sotadi); "ko'p", "bitta" ma'noda so'zlarni ishlatadi; turli ohangdagi so'zlarni imo- ishoralar yordamida nutqida ishlatadi; didaktik va so'z o'yinlari o'ynaydi.	mazmuniga ko'ra to'g'ri qo'llaydi; nutqida ma'nosiga monand asosiy so'z turkumlarini qo'llaydi; bir negizli so'zlarni (namuna asosida) tuza oladi (mushuk- mushukcha- mushukli); grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi; suhbatlasha oladi; kattalar yordamida ijodiy hikoya tuzadi; barcha tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qiladi; xorijiy tilni bilishi: salomlashish va xayrlashish so'zlarini qo'llaydi;	turli gaplarni tuzadi; shaxsiy tajribasiga tayanib, rasm yuzasidan tasviriy hikoyani mustaqil tuzadi; turli janrdagi badiiy asarlarni ifodali hikoyalaydi; guruh muhokamasida muloqotga kirishib va tinglab ishtirok etadi; qofiyalar tuzadi, topishmoqlar topadi; nutqida xorijiy so'zlarni qo'llaydi; kichik she'rlarni, qofiyalarni so'zlab berishi mumkin;
--	---	---	---

		10gacha sanoqni biladi; Asosiy ranglar nomini biladi (oq, sariq, qizil, yashil, ko'k, qora).	yil fasllari nomini biladi (bahor, yoz, kuz, qish).
NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI			
Kichik soha: O'qish malakalari			
Talab: Bola kitob va o'qishga qiziqish bildiradi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
kitob haqida tushunchaga ega; kattalardan kitob o'qib berishlarini so'raydi; o'z yoshiga mos kitoblarni tomosha qiladi; kitobdagi rasmlar va so'zlar orasidagi bog'liqlikni aniqlaydi; rasmlardan tanish ertak	tinglagan hikoyasiga munosabatini bildiradi va kattalarga savol beradi; rasmlar asosida tinglagan asarini asosiy o'rinlarini gapirib bera oladi; badiiy asardan parcha tinglagandan so'ng asar	so'zdagi birinchi tovushni biladi; kitobni mustaqil tomosha qiladi; tovushlarni farqlaydi; so'zlarni bo'g'inga bo'ladi; so'zlarga qofiya kelishtiradi; nutqning dialogik shaklini qo'llaydi, savollar beradi; she'rlarni yod oladi va ifodali o'qiydi; sevimli badiiy	boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so'zlab beradi; sodda va murakkab gaplarni nutqida qo'llaydi; so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi; bo'g'inli kartochkalar yordamida bo'g'inlardan so'zlar tuzadi;

qahramonlarini taniydi.	nomini ayta oladi; o'z yoshiga mos she'rlarni yoddan biladi; kitobni ehtiyotlab foydalanadi.	adabiyot, ertak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi; ifodalilikning ohang vositalarini to'g'ri qo'llaydi; harflarga tegishli so'zlarni topadi.	so'z, tovush, bo'g'in, gap haqida tushunchaga ega; peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o'qiydi; bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, she'r, hikoya); mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.
-------------------------	--	--	--

NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI

Kichik soha: Qo'l barmoqlari mayda motorikasi

Talab: Bolada yozuv malakasi shakllanadi

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

2-3 obyektдан rasm tuzadi; varaқ sathida to'g'ri chiziqlar chizadi;	chiziq, belgi, ilgaklarni sodda namunalarni qayta chiza	chiziq, ilgak va gajakcha yozadi; qog'ozni turli usulda taxlaydi (origami);	qog'ozda to'g'ri chiziqlar, so'zlar va qisqa gaplarni yozadi; daftardagi
--	---	--	---

harflarga qiziqish bildiradi, ayrim harflarni shaklini biladi va farqlaydi; yirik munchoqlarni ipga teradi; yozishga harakat qiladi.	oladi; predmetlarni ng murakkab bo'lmagan shakllarni chizadi; rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va bo'yaydi; shablonlarni shtrixlaydi; mayda qismlardan iborat konstruktorni yig'adi; o'rta munchoqlarni ipga teradi; aniq belgilangan chiziq asosida qog'ozni qaychi bilan qirqadi; belgilangan chiziq asosida qog'ozni tekis yirtadi; ikki qo'li	namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi; barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi; rasmlarni tekis shtrixlaydi; turli sathlarda chizadi (nam qumda, asfaltda, doskada); soch o'radi; mozaika yig'adi.	yoZuv qatorlarini aniqlay oladi; rasmlarni to'g'ri joylashtiradi; qo'lni uzmasdan nuqta-chiziqchalarni birlashtirib rasm chizadi; matodagi rasmni to'qiydi; "o'ziga" va "o'zidan" harakatlari yo'nalishini tushunadi; turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi.
--	---	--	---

bilan qog'ozni
buraydi.

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Intellektual-bilish malakalari

Talab: Bola qiziquvchan, intiluvchan, faol, bilishga qiziqish bildiradi va unga ehtiyoji mavjud

3-4 yosh

4-5 yosh

5-6 yosh

6-7 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

bitta belgi asosida predmetlarni ajratadi; olti rangni farqlaydi va ajratadi; bir xil poyini topadi; rasmlardagi predmetlarni taniydi va nomini aytadi; jonli obyektlarga qiziqish bildiradi; predmetlar yasalgan materialni farqlaydi (qog'ozdan,	rasmlarni solishtiradi; 2-3 belgi asosida guruhlarga ajrata oladi; jonzodlarni asosiy ehtiyojlarini ta'riflaydi va taqqoslaydi (hayvonlar: ovqat yeydi, nafas oladi, harakatlanadi va hokazo); hayot uchun ahamiyatini ta'riflaydi; kun qismlarini	rasm asosida sujetni eslab qoladi va gapiradi; ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; turli hayvonlarning yashash joylarini aytadi (baliq suvda yashaydi, bo'ri o'rmonda); geografik tushunchalarni biladi (er, dengiz, tog', daryo); oddiy sabab va oqibat aloqalarni tushunadi (yomg'ir	atrof-olam haqida mustaqil ma'lumot izlaydi; kuzatuvlar asosida xulosa qiladi va umumlashtiradi; yil fasllari va voqea-hodisa ketma-ketligini aytadi; rasmlar bo'yicha ketma-ketlikni saqlagan holda fikr yuritadi, mulohaza qiladi; o'z mamlakati
--	--	--	--

taxtadan, temirdan); xonani kuzatadi va o'zi turgan joyni aniqlaydi; atrof-muhitga qiziqish bildiradi.

nutqida to'g'ri qo'llaydi va biladi (ertalab, peshin, kechqurun, kechasi); yil fasllarini tavsiflaydi; atrof olamga faol qiziqish bildiradi.

yog'yapti — panaga o'tish kerak); sinash va xatolarni tahlil qilish yo'li bilan amaliy vazifalar yechimini topishga harakat qiladi (mashinani yurgizish uchun kalitni burash kerak); obyektlarni tizimga soladi.

va uning ramzlari haqida tushunchaga ega; o'z xalqining ayrim milliy an'analari va odatlarini biladi; bolalar ensiklopediyasi dan foydalana oladi (kerakli ma'lumotni topa oladi); ichki va tashqi belgilarga ko'ra predmetlarni guruhlarga ajratadi (rangi, shakli, hajmi, vazni, harakatlanish tezligi, vazifasiga qarab).

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Elementar matematik malakalar

Talab: Bola elementar matematik malakalarga ega

3-4 yosh

4-5 yosh

5-6 yosh

6-7 yosh

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

predmetlarni 1-2 ta belgisi bo'yicha guruhlarga bo'ladi; atrof-muhitdan "bitta" va "ko'p" ni topadi; predmetlarni kattaligiga qarab teradi; geometrik shakllarni farqlaydi (doira, kvadrat, uchburchak), shakllar (kub, shar); ko'plikni taqqoslaydi; "uzun" va "qisqa" tushunchalari ma'nosini biladi; "yarim", "yarimtacha" tushunchalarni biladi; sanoq va sonlar qatoridagi	geometrik shakllarga o'xshash predmetlarni topadi; geometrik figura va shakllarni nomini biladi; miqdoriy aloqalarini belgilaydi; sonning miqdoriy tarkibini biladi; matematik tushunchalar dan foydalanadi (ko'p, kam, jami, shuncha); ketma ketlikda sanaydi; ko'pliklarni taqqoslaydi "ko'proq", "kamroq", "teng";	geometrik shakllarni biladi va ularni predmetlar orasidan ajratadi; predmetlarni uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko'ra taqqoslaydi; predmetlar guruhini taqqoslaydi; muloqot davrida matematik terminologiyani qo'llaydi; belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =); 1dan 10gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanaydi; predmetlarni soni va sanog'iga qarab	hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi; geometrik shakllar va figuralarni biladi; 20gacha bo'lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi; 10gacha qo'shish va ayirishli sodda matematik vazifalarni yechadi (son va belgilarni qo'llagan xolda +, -, =); son qatori haqida tushunchaga ega guruhlarni teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qanchaga
---	---	--	--

bog'liqlikni tushunadi; mexanik tarzda 5gacha sanaydi.	bo'shliqda yo'nalish olishni biladi (oldinda, orqada, tepada, pastda, yaqin, uzoq); butun va uning qismlari tushunchasini tushunadi.	taqqoslaydi; predmetlar tengligi va tengmasligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir biri bilan taqqoslaydi.	ko'p?, qanchaga kam?); hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma ket joylashtiradi; shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o'lchaydi.
--	--	---	---

BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI

Kichik soha: Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Talab: Bola o'zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qiladi, fanni o'rganishda faol

3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
----------	----------	----------	----------

KUTILAYOTGAN NATIJALAR

kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo'yash, cho'ktirish, suv sathiga chiqarish va	kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi (eritish, yaxlatish, magnetizm, bo'yash, qizdirish,	tabiat hodisalarini turli omillarga bog'liqligini tushunadi; tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushuntirib bera	qurilmani mustaqil o'lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo'yicha); shaxsiy qiziqishi va
---	--	--	--

hokazo); tabiatdagi ayrim o'zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg'ir, do'l, issiq, shamol va hokazo); ayrim hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi; ayrim jonivorlar bolalarini nomini to'g'ri aytadi; "sujet" asosida qurilmalar yaratadi; suv va qum bilan o'ynaydi; jonli obyektlarni kuzatadi.	qaynatish va hokazo); yil fasllariga xos tabiat hodisalarini biladi; nima uchun ovqatlanish, nafas olish, o'qish kerakligini biladi; organizmning ma'lum bir organlari funktsiyasini biladi; ayrim jismoniy jarayonlar muhimligini tushunadi; konstruktor, pazl, mozaika, Legodan konstruksiyal ar yaratadi.	oladi (masalan, qor erishi); insonlarni atrof- olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig'ish); tabiiy materiallardan qo'l ishlarini yaratishni biladi, ish bosqichlarini belgilaydi; mustaqil qurib yasashi mumkin; jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi; insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab yetadi.	kuzatuvlariga bog'liq savollar beradi; shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtirad i va tushuntiradi; tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi; turli resurslarni qo'llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta'riflaydi; atrof-muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni
--	--	--	--

			ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog'ozni asrash).
IJODIY RIVOJLANISH			
Kichik soha: Dunyoni badiiy tasavvur etish			
Talab: Bola turli xil san'at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishini namoyish etadi			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
illyustratsiya, o'yinchoq, xalq amaliy san'ati asarlarini o'rganishda emotsional ta'sirlanadi; tabiat obyektlarida, o'yinchoq, bolalarning o'z kiyimlarida ranglar jilosini anglaydi; tanish qo'shiqlarni biladi; diqqat bilan	O'zbekiston xalq amaliy san'ati haqida ilk tushunchaga ega (so'zana, keramika) ; san'atga tegishli kasblarning ayrimlari haqida tushunchaga ega (rassom, bastakor, aktyor); ayrim san'at turlari va	musiqiy asarga hissiy munosabat bildiradi; musiqaga monand harakatlar o'ylab topishi mumkin; badiiy asarlar qahramonlari rolini o'ynashi mumkin; amaliy san'at turlari haqida birlamchi tushunchaga ega; shaxsiy loyihalar yaratishda g'oyalar	she'rni ifodali o'qib bera oladi; tanish asarlarni mustaqil so'zlab beradi, ularni sahnalashtirish da ishtirok etadi; she'riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi; musiqiy asarning xarakterini

<p>tovush, ohanglarni tinglaydi; tasviriy san'at elementlaridan foydalanadi.</p>	<p>janrlarini farqlaydi (qo'shiq, raqs, musiqa, she'riyat, topishmoq, rasm, haykaltaroshlik); ayrim arxitektura qurilmalari haqida tushunchaga ega (yashash joyi va jamoat joyi); qo'shiq va navolarda yuqori va past tovushlarni farqlaydi; ayrim musiqiy asboblarning chalinishini farqlaydi (piano, dutor, doira); musiqaga monand</p>	<p>bildiradi; musiqada uslublarni farqlaydi; kichik ssenariylar tuzib, sahna ko'rinishlari tashkillashtiradi; tabiiy materiallardan qo'l ishlari yasaydi; kiyimlarni bezashi, guldastalar tuzishi, sodda retsept asosida taom tayyorlashi mumkin.</p>	<p>aniqlashga qodir; bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi; tasviriy san'at turlarini farqlaydi.</p>
--	---	---	--

	raqsga tushishi mumkin.		
IJODIY RIVOJLANISH			
Kichik soha: Badiiy-ijodiy qobiliyatlar			
Talab: Bola atrofdagi borliqni ijodiy o'zgartirish malakasiga ega			
3-4 yosh	4-5 yosh	5-6 yosh	6-7 yosh
KUTILAYOTGAN NATIJALAR			
<p>tasviriy materiallar nomini biladi va to'g'ri qo'llaydi; sodda kompozitsiyalar, alohida buyumlarni chizadi; tasvirlanayotgan predmetlarga mos ranglarni tanlaydi va bo'yaydi; bolalar musiqiy asboblari (buksinofon) chalishga taqlid qiladi; bolalar guruhi</p>	<p>predmetlar shaklini aniq ko'rsatgan xolda qismlarga boy tasvirlar chizadi; syujetli rasm, predmet va personajlar chizadi; shakllarni turli texnika asosida bo'yaydi; loy, xamir va plastilindan yasaydi; faoliyati boshida ko'z oldiga keltirib</p>	<p>murakkab predmetlar chizadi va ularni dekorativ naqshlar bilan yasatadi (choynak, gilam, ro'mol, lagan); xotira yoki tasavvuriga ko'ra sujet yaratadi; qog'ozdan va tabiat materiallaridan applikasiya-hajmli oranjirovkalar yaratadi (siluetlar, otkritkalar, kitob yorliqlari);</p>	<p>turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi; individual va jamoada qo'shiq ayta oladi; raqsda harakatlariga jilo bergan xolda shaxsiy namuna yaratishi mumkin; musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo'r bo'lib chalishi mumkin;</p>

bilan qo'shiq aytadi; raqsga tushadi (juftlikda aylanadi, oyoqlari bilan depsinadi, predmetlar bilan musiqaga monand harakatlanadi); plastilindan berilgan sodda shakllarni yasaydi; tayyor shakllardan tasvirlar yaratadi, turli shakldagi qog'ozlarni yasatadi; qumdan turli shakl va piramidalar quradi.	tasavvur qiladi; xorda va yakkaxon qo'shiq aytadi; raqs harakatlarini hissiyotlarni namoyon etish va muloqot vositasi sifatida qabul qiladi; musiqiy asboblarda chaladi (qo'ng'iroqch a, doira, metallofon, uchburchak); kattalar yordamida barmoqlar teatri sahna ko'rinishlarida ishtirok etadi.	muhit yoki shaxsiy loyihalarini yasatadi; qog'oz buklash, yirtish, qirqish yo'li bilan shakllarni harakati va proporsiyalarini yoritgan holda kichik syujetli kompozitsiyalar yaratadi; tengdoshlari bilan ijodiy o'yinlar yaratishi mumkin; shaxsiy ishlarida turli ifoda vositalarini qo'llaydi; jamoaviy loyihalarda g'oyalar taklif etadi.	g'oya yaratadi va tatbiq etadi; maqsadga erishishda o'rindosh sifatida turli predmetlar qo'llaydi; turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi; olamni o'zgartirishda insonning yaratuvchi rolini anglaydi; buyumlarni ikkilamchi qo'llashda g'oyalar taklif etishi mumkin.
---	--	--	--

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini ayting.
2. Davlat talablarining maqsadi va asosiy tamoyillari qaysilar?
3. Bola kompetensiyasi nima?
4. Davlat talablarining vazifalari qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgach ta'lim konsepsiyasi, -T.:2008.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari, T:, 2013.
3. Bolajon dasturi, T: 2016.
4. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari - T 2000.
5. <https://lex.uz/docs/-3805404>

4-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MT SOHASIGA DOIR NAMUNAVIY NIZOMLAR

Reja:

1. Maktabgacha tarbiya muassasalarining vazifalari.
2. Maktabgacha tarbiya muassasalarida pedagog va otalarning huquq va burchlari.
3. O'zbekiston Respublikasi MT sohasida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Tayanch so'z va iboralar: maktabgacha ta'lim, nizom, muassasa, pedagog, ota-ona, o'quv-tarbiya jarayoni, burch, vazifa, bolalar yaslisi, bolalar bog'cha-yaslisi, bolalar bog'chasi, xonadonlardagi bolalar bog'chasi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti – ta'lim-tarbiya muassasasi hisoblanadi, uning vazifasiga bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilishga doir qiziqishlarini, madaniy-axloq-odob ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, unda bilimga muhabbat uyg'otish, salomatligini mustahkamlash kiradi.

Maktabgacha ta'lim oilada va maktabgacha tarbiya muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga hamda maktabgacha ta'lim davlat standartlari tasdiqlangunga qadar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish dasturiga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga va

boshqa normativ hujjatlarga, shuningdek, mazkur Nizomga amal qiladi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti mazkur Nizom asosida jamoaning umumiy yig'ilishida tasdiqlanadigan hamda uning faoliyati shart-sharoitlarini belgilab beradigan o'z Ustavini ishlab chiqadi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti, idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, yuridik shaxs hisoblanadi, o'z muhriga va nomi yozilgan shtampga ega bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- umuminsoniy qadriyatlarni, ijodiy tajribalarni, ko'p asrlik an'analarni hisobga olgan holda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish maqsadida maktabgacha tarbiya va ta'lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

- pedagogik jarayonda oila va jamoatchilik tarbiyasining birligi g'oyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, har bir ota-ona bilan maktabgacha tarbiya tashkiloti o'rtasida huquqiy munosabatlarni o'rnatish;

- maktabgacha ta'lim va tarbiya konsepsiyasi va dasturi talablariga javob beradigan maktabgacha ta'lim mazmunini muntazam yangilab borish.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti, mulkchilik shakllari va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

- ta'lim va tarbiyaning ilg'or usullari asosida o'qitishning zamonaviy texnik vositalari, ko'rgazmali qo'llanmalar o'quv jarayoniga tatbiq etilishini ta'minlaydi;

- bolalar bog'chasi xodimlarini va barcha ota-onalarni ushbu Nizom bilan tanishtiradi;

- bolalar bog'chasiga birlashtirilgan tibbiy muassasa bilan birgalikda bolalarning salomatligi mustahkamlanishi va

muhofaza qilinishini ta'minlaydigan tadbirlarning bajarilishi va shart-sharoitlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- bolaning hissiy sihat-salomatligini ta'minlaydi;
- xalqaro huquq va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari bilan belgilangan ta'lim va tarbiya ishlarining sifatiga, ota-onalar huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilinishi uchun javob beradi, ushbu normalar bo'yicha har bir bola quyidagi huquqlarga egadir:
 - kattalarning bolalar ehtiyojiga e'tibor va hurmat bilan munosabatda bo'lishi;
 - shaxsiy-hissiy munosabatda bo'lish ehtiyojining qondirilishi;
 - rivojlanishdagi mavjud nuqsonlar tuzatilishi yuzasidan malakali yordam olish;
 - o'z qadr-qimmatini himoya qilish;
 - kattalar tomonidan doimiy g'amxo'rlik ko'rsatish, ehtiyotsiz va malakasiz munosabatda bo'lishdan himoya qilish;
 - jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, shaxsni haqorat qilishning barcha shakllaridan himoya qilish;
 - fuqarolarning taklif va arizalari o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil etadi, ta'lim haqidagi qonunlarning buzilishini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'radi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti:

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan variativ, namunaviy majmuadan dasturlar tanlash;
- tasdiqlash tartibi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadigan o'z (mualliflik) dasturlari va uslubiyatini ishlab chiqish va o'z amaliy faoliyatida qo'llash;
- maktab va boshqa ta'lim hamda ilmiy muassasalar bilan doimiy aloqalar o'rnatish;

tajriba maydoni maqomiga ega bo'lish huquqini himoya qilish bilan mustaqil sinov ishlarida ishtirok etish va bu ishlarni olib borish;

- maktabgacha tarbiya muassasalari ishini takomillashtirish, moddiy bazani mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun xalq ta'limini boshqarishning yuqori organlariga kiritish

Pedagog xodimlar:

- bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yuqori malakada amalga oshirishga;
- pedagogik axloq-odobga rioya qilishga, bolaning qadr-qimmatini hurmat qilishga, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishga, ularni mehnatga muhabbat, ota-onaga mehr, atrof muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga;
- o'z kasb malakasi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirishga majburdirlar.

Pedagog xodimlarning boshqa majburiyatlari bolalar bog'chasi ustavi va malaka tavsiyanomalari orqali belgilanadi.

Pedagog xodimlar:

- o'z kasb mahorati, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, maktabgacha tarbiya tashkilotini boshqarishda qatnashish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, kasb bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarishni rad etish huquqiga egadirlar.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar:

- o'z bolalari uchun ta'lim va tarbiya shaklini tanlash, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari turini va ta'lim olib boriladigan tilni tanlash;

- maktabgacha tarbiya bolalar muassasasi ma'muriyatidan maktabgacha tarbiya tashkiloti Ustaviga muvofiq keluvchi zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

- bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab etish;

- maktabgacha tarbiya bolalar muassasasida bolalarning hayoti va faoliyatini tashkil etishda faol ishtirok etish;

- bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish;

- bolaning qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, unda mehnatsevarlik, yaxshilik, ezgulik tuyg'ularini, katta yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash;

- belgilangan normativlarga ko'ra bolaning bog'chada bo'lishi uchun haqni o'z vaqtida to'lash;

- bolalarni oila sharoitda tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- bolaning to'laqonli ovqatlanishini, unda shaxsiy gigiyena ko'nikmalari tarbiyalanishini qat'iy kuzatib borish, bolani maktabgacha tarbiya tashkilotiga ozoda kiyingan holda olib kelish;

- rejim doirasida bolani muassasaga o'zi uchun istalgan qulay vaqtda olib kelish va olib ketish huquqiga egadirlar.

Bolalar muassasalarining asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

- bolalar yaslisi;

- bolalar bog'cha-yaslisi;

- bolalar bog'chasi;

- xonadonlardagi bolalar bog'chasi (ham mustaqil muassasa, ham filial sifatida).

Ota-onalarning arizasi bo'yicha hokimlikning qarori bilan maktabgacha tarbiya tashkilotida, shu jumladan, shartnoma

asosida, bolaning bog'chada qisqa muddatda bo'lishi uchun guruhlar (sayrli, navbatchi guruhlar) ertalabki, kechki soatlarda, shuningdek, shanba va yakshanba kunlari ochilishi mumkin. Bunday guruhlarda ota-onalar bolani uch soatgacha qoldirishlari mumkin. Bunda maktabgacha tarbiya tashkilotiga doimiy qatnovchi bolalarning manfaatlari kamsitilmasligi kerak.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tarbiya muassasalari va guruhlari:

- nutqida nuqson bo'lgan (qulog'i eshitadigan) bolalar uchun;

- eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun;

- ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun;

- tayanch-harakat a'zolarida nuqson bo'lgan bolalar uchun;

- ruhiy rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;

- aqli zaif bolalar uchun tashkil etiladi;

- tuberkulyoz (sil) xastaligi endi ko'rinish bera boshlagan, sil xastaligining kichik va pasayib borayotgan shakllari bo'lgan bolalar uchun sanatoriya tipidagi maktabgacha tarbiya muassasalari;

- tez-tez kasallanuvchi bolalar uchun;

- virusli gepatit bilan og'rigan bolalar uchun, shuningdek, agar ularga ehtiyoj tug'ilsa, boshqa ixtisosdagi maktabgacha tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Maxsus maqsadli maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil etish tartibi, ular ishining o'ziga xosligi, ularga qabul qilish qoidalari, bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli yo'riqnomalar va dasturiy-uslubiy hujjatlar bilan belgilanadi. Yetim bolalar, ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar uchun bolalar uylari, mehribonlik uylari, maktab-internatlar huzurida maktabgacha tarbiya guruhlari tashkil etiladi, ularning maqomi tegishli nizomlar asosida belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan davlat umumta'lim muassasalarini tashkil etish va tugatish tartibi haqidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti quyidagilarga bo'linadi:

- davlat maktabgacha tarbiya muassasalari (hokimlik qarori bilan tashkil etiladi);

- idoraviy maktabgacha tarbiya muassasalari (idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning qarori bilan tashkil etiladi);

- kooperativ maktabgacha tarbiya muassasalari ("Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi);

- aksionerlik maktabgacha tarbiya muassasalari (amaldagi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda aksionerlik korxonalari, tashkilotlari mablag'lari hisobidan tashkil qilinadi);

- jamoatchilik asosida maktabgacha tarbiya muassasalari (yotoqxonalar, turar joylardan foydalanish idoralari, madaniy va savdo markazlarida, shuningdek, oila ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqa ko'rinishlarda tashkil etiladi);

- xonadonlardagi maktabgacha tarbiya muassasalari (kooperatsiya to'g'risidagi qonun hujjatlari va xonadonlardagi maktabgacha tarbiya muassasalari to'g'risidagi Nizomga muvofiq bir yoki bir necha oila tomonidan tashkil qilinadi);

- aralash maktabgacha tarbiya muassasalari (davlat, kooperativlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va oilalar tomonidan ulush qo'shib shartnoma asosida tashkil etiladi).

5. Maktabgacha tarbiya tashkiloti zamonaviy talablarga javob beradigan, iqlim sharoitlarini, ekologik vaziyatni va tarkib topgan milliy an'analarni hisobga olgan holda maxsus loyiha bo'yicha qurilgan binoda tashkil etiladi. Umumiy yo'nalishdagi

maktabgacha tarbiya tashkiloti uchun 140-160 o'rin, maxsus maqsadli maktabgacha tarbiya tashkiloti uchun 90-120 o'rin maqbul deb hisoblanishi kerak.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti muassislar tomonidan Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan ro'yxat zarur inventari va jihozlar bilan ta'minlanadi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotining ish tartibi ota-onalarning istagi hisobga olingan holda xalq ta'limi bo'yicha Kengash hamda maktabgacha tarbiya tashkiloti pedagoglari Kengashi bilan kelishgan holda xalq ta'limi boshqarmasi (bo'limi) ning, maktabgacha tarbiya tashkiloti qarashli bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotning taqdimnomasi bo'yicha hokimlikning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha tarbiya tashkiloti yoki uning ayrim guruhlari bolalar haftasiga 5, 6, 7 kun kunduzi, sutka mobaynida yoki qisqa muddat bo'ladigan tartibda, bir yoki ikki kunlik dam olish kunlari bilan ishlashlari mumkin. Xodimlarga dam olish kunlari o'zgaruvchi jadval bo'yicha beriladi. Maktabgacha tarbiya tashkilotining, shu jumladan, uning ayrim guruhlari ishining davomiyligi, boshlanishi va tugashi ota-onalar ehtiyojini hisobga olgan holda belgilanadi. Ammo u ertalabki 6.30 dan barvaqt va kechki 21.00 dan kech bo'lmasligi kerak.

Maktabgacha tarbiya tashkilotida bolalarni ovqatlantirish ish kuni davomiyligini hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlarining naturadagi normalariga muvofiq tashkil qilinadi. Bolalar 6 soatdan kam bo'ladigan guruhlarda ovqatlantirishni tashkil qilish, uning shakli va necha martaligi ota-onalar bilan kelishuvga binoan belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti pedagogik vazifalarni hal etish maqsadida pedagoglar Kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar Kengashini tashkil etadi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq maktabgacha tarbiya tashkiloti bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish huquqiga ega.

Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish shtatdagi yoki maktabgacha tarbiya tashkilotiga maxsus birlashtirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlari maktabgacha tarbiya tashkiloti ma'muriyati bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlarining o'tkazilishi, sanitariya-gigiyena normalariga, tarbiyalanuvchilarning ovqatlanishi sifati va tartibiga, ularga tushadigan jismoniy va aqliy og'irlikni muvofiqlashtirishga rioya qilish uchun javob beradi.

Tibbiyot xodimlari faoliyati ustidan nazorat qilish mahalliy sog'liqni saqlash organlariga yuklanadi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotining tuzilmasi va shtatlarini tegishli boshqaruv organi va muassis O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy shtatlarga tatbiqan belgilaydi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti mudiri, idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, muassislar tomonidan, xalq ta'limini boshqarish organlari bilan kelishgan holda, maxsus oliy ma'lumotga va besh yildan kam bo'lmagan pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi.

Katta tarbiyachi (tarbiyachi-metodist) xalq ta'limini boshqarish organlari bilan kelishgan holda muassislar tomonidan maxsus oliy ma'lumot va uch yildan kam bo'lmagan pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotining barcha toifadagi xodimlarining huquq va burchlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi bilan kelishgan holda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan malaka tavsiyanomalariga ko'ra belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida lavozimlarni egallash Mehnat vazirligi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining 1994-yil 6-yanvardagi 1/1 (30-22)-son qaroriga muvofiq yozma shartnoma tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Maktabgacha tarbiya tashkiloti ma'muriyati ushbu muassasa qarashli bo'lgan tashkilotning rahbarlari, jamoat tashkilotlari, pedagoglar kengashi bilan birgalikda xalq ta'limi organlari bilan kelishgan holda maktabgacha tarbiya tashkiloti xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydi, ularga o'z vaqtida zarur metodik yordam ko'rsatadi.

Davlat maktabgacha tarbiya tashkilotini boshqarish yakkaboshlik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplari asosida keng oshkoralik sharoitlarida amalga oshiriladi.

Mudir O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maktabgacha tarbiya tashkilotining butun faoliyatiga rahbarlik qiladi, bolalarning hayoti va salomatligi muhofaza qilinishi, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash uchun, maktabgacha tarbiya tashkilotining tashkiliy-pedagogik, moliyaviy-xo'jalik va bosh faoliyat natijalari, jamoada ijobiy ma'naviy-ruhiy muhit yaratilishi uchun shaxsan javob beradi.

Maktabgacha tarbiya muassasi mudiri amaldagi qonunchilik doirasida maktabgacha tarbiya tashkiloti pedagogik xodimlari va ma'muriyatining kasb-kori va lavozim faoliyatlariga asossiz aralashuvga chek qo'yuvchi zarur chora-tadbirlarni ko'radi; maktabgacha tarbiya tashkilotining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tegishli organlarga takliflar kiritadi.

Mudir maktabgacha tarbiya tashkiloti huquqi doirasida maktabgacha tarbiya tashkilotining barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi, ko'rsatmalar beradi. Tarbiyachi-metodist, katta tibbiyot hamshirasi, xo'jalik

mudirining o'z huquqlari doirasida beradigan ko'rsatmalari ham barcha xodimlar tomonidan bajarilishi shart.

Davlat maktabgacha tarbiya tashkiloti budjetdan yoki tarmoqdan mablag' bilan ta'minlash prinsipi asosida faoliyat ko'rsatadi. Bolalari maktabgacha tarbiya tashkilotida tarbiyalangani uchun ota-onalar tomonidan haq to'lash amaldagi qonunchilikka binoan amalga oshiriladi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotini mablag' bilan ta'minlash uchun hisob birligi sifatida bitta bolaning o'rtacha yillik ta'minoti qabul qilinadi.

Budjetdan yoki tarmoqdan mablag' bilan ta'minlash normativlari vazirliklar va idoralar tomonidan bevosita ularga bo'ysunuvchi muassasalar uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarga muvofiq ishlab chiqiladi (oziq-ovqat mahsulotlarining natural me'yori, jihozlar va uskunalar soni va boshqalar).

Quyidagilar maktabgacha tarbiya tashkilotining qo'shimcha manbalari hisoblanadi:

- davlat korxonalari va tashkilotlari, kooperativ korxonalar va tashkilotlar hamda aholi buyurtmasi bo'yicha tuzilgan shartnomalarga muvofiq moddiy tUSDagi ishlar (xizmatlar) bajarilganligi uchun tushum;

- bo'sh yordamchi xonalarni, inshootlarni, asbob-uskunalarni ijaraga berishdan tushgan mablag'lar;

- davlat korxonalari, kooperativ va boshqa korxonalardan, jamoat tashkilotlaridan, shuningdek, ayrim fuqarolardan tushgan ixtiyoriy badallar va beriladigan moddiy boyliklar;

- boshqa tushumlar.

Turli manbalardan tushgan barcha mablag'lar, mehnat shartnomasi bo'yicha aniq ijrochilarga mo'ljallangan puldan tashqari, maktabgacha tarbiya tashkilotining daromadini tashkil

etadi. Maktabgacha tarbiya tashkiloti bolalarga chet tillarni o'rgatish, xoreografiya, ritmik gimnastika bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, shuningdek, belgilangan tartibda ruxsat etilgan boshqa qo'shimcha xizmat turlarini ham bajaradi. Maktabgacha tarbiya tashkilotining ta'minoti bo'yicha buxgalteriya hisob-kitobi markazlashtirilgan buxgalteriyalar yoki maktabgacha tarbiya tashkiloti tomonidan mustaqil ravishda yuritiladi. Maktabgacha tarbiya tashkilotining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilish belgilangan tartibda shu ishga vakolatli organlar tomonidan o'tkaziladi. Maktabgacha tarbiya tashkilotining mehnati tashkil etish va unga haq to'lash borasidagi huquqi Yagona tarif setkasi va shu masalaga oid boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Nazorat savollari

1. Qanday holatlarda ixtisoslashtirilgan tarbiya muassasalari tashkil etiladi?
2. Maktabgacha tarbiya tashkiloti qanday turlarga bo'linadi?
3. Maktabgacha tarbiya muassasalarida pedagoglarning qanday huquq, burch, vazifalari mavjud?
4. Ota-onalar zimmasiga qanday vazifalar yuklanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.А.Содиқова "Мақтабгача педагогика". "Тафаккур сарчашмалари", Т.: 2013 й.
2. Н.М.Каюмова "Мақтабгача педагогика". "ТДПУ" нашриёти, Т.: 2013 й.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. , -Т.:O'zbekiston, 1997 у.
4. [https://nrm.uz/contentf?doc=130269_maktabgacha_tarbiya_muassasasi_to%E2%80%98g%20risida_nizom_\(o%E2%80%98zr_vm_18_02_1995_y_59-son_qaroriga_1-ilova\)&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr](https://nrm.uz/contentf?doc=130269_maktabgacha_tarbiya_muassasasi_to%E2%80%98g%20risida_nizom_(o%E2%80%98zr_vm_18_02_1995_y_59-son_qaroriga_1-ilova)&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr)

III MODUL. "ILK QADAM" DASTURI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINING DAVLAT O'QUV DASTURI

5-mavzu. "Ilk qadam" dasturi maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi

Reja:

1. "Ilk qadam" dasturi haqida tushuncha.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishda yangi vosita sifatida.
3. Dasturda belgilangan maqsad va vazifalar.

Tayanch so'z va iboralar: maktabgacha ta'lim muassasasi, "Ilk qadam", davlat o'quv dasturi, ijtimoiy muhit, kompetensiyaviy yondashuv, davlat talablari, bola salomatligi, o'quv tarbiyaviy faoliyat, ilk rivojlanish, alohida ehtiyojga ega bolalar.

Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablari"ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim muassasalarida:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotari;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasalari;

- maktabgacha guruhlariga ega bo'lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida – ushbu davlat o'quv dasturini qo'llash majburiydir.

Davlat o'quv dasturi 7 bobdan iborat bo'lib, I bobda MTM davlat o'quv dasturini qo'llash va MTMning maqsad va vazifalari aks ettirilgan. Davlat o'quv dasturi variativ o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. Ta'lim muassasalari Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o'quv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega. Ta'lim muassasasi davlat o'quv dasturi asosida o'zining MTM ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta'lim muassasasining ishchi o'quv dasturi muassasa pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi.

Davlat o'quv dasturida MTMning quyidagi maqsad va vazifalari belgilab berilgan:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid davlat talablari asosida hamda davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
 - maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
 - bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
 - bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.
- II bob MTM ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari deb nomlanib, u quyidagilarni:

- MTM ta'lim jarayonining maqsadlari;
- MTMda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari;
- qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish;
- alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati;

- ota-onalar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Davlat dasturida MTM ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari aks ettirilgan bo'lib, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir. MTMda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari:

- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati Maktabgacha ta'lim muassasasida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi

rahbari javobgar bo'ladi. Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarni jalb etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

III bob "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv" deb nomlanib, dastur majburiy 5ta ta'lim sohasini o'z ichiga oladi:

- «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari;
- «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari;
- «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari;
- «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari;
- «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari. Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi. O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin

- MTM ta'lim jarayonining maqsadlari;
- MTMda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari;
- qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish;
- alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati;

- ota-onalar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

Davlat dasturida MTM ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari aks ettirilgan bo'lib, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir. MTMda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari:

- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohasining o'zaro bog'liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati Maktabgacha ta'lim muassasasida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi

rahbari javobgar bo'ladi. Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarni jalb etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

III bob "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv" deb nomlanib, dastur majburiy 5ta ta'lim sohasini o'z ichiga oladi:

- «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari;
- «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari;
- «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari;
- «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari;
- «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari. Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi. O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin

jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi. Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati. Bilish kompetensiyasi - atrofda olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

IV bob – "O'quv-tarbiyaviy faoliyat" bobida O'zbekiston Respublikasidagi barcha MTMLarda tashkil etiladigan o'quv va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi. Bunda MTMLarda o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish turlari – yillik, mavzuviy, haftalik ish rejalari va tarbiyachi tomonidan rejalashtirishni amalga oshirish yoritib beriladi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari» asosida amalga oshiriladi.

V bob "Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari" MTM pedagoglari tomonidan bolaning rivojlanishini kuzatib borish xaritasi yiliga uch marta to'ldiriladi (3dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan) shuningdek, 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi ham to'ldiriladi. Bu xarita Davlat dasturiga muvofiq bola rivojlanishning beshta sohasi kompetensiyalari bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

VI bob – "Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish" bobida maktabgacha ta'lim muassasasida quyidagi mazmunda:

- ko'rgazmali-rivojlantiruvchi;
- madaniy-tarixiy qadriyatlar;
- milliy va mintaqaviy an'analar;
- tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi

yoritiladi.

VII bob. Ilovalarni o'z ichiga olib ushbu dasturni amaliyotda qo'llashning mazmun va mohiyati yoritib beriladi. Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydilar. Dastur uchta asosiy bo'limni qamrab oladi:

- maqsadli – bu tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oladigan bo'lim;
- mazmunli – bu Dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim;
- tashkiliy – bu Dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifini, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim.⁶

Maktabgacha ta'lim: muammolar va ularning yechimlari⁷

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

2018-yilning sentabr oyidan tatbiq qilinadigan yangi maktabgacha ta'lim dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim muassasalari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi MTMLarga yetkazilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda birinchi marta hammaga mavzuiy rejalashtirish dasturlari tarqatilgan.

⁶ https://hozir.org/pars_docs/refs/29/28397/28397.pdf

⁷ <https://kun.uz/uz/news/2018/08/29/maktabgacha-talim-muammolar-va-ularning-ecimlari>

"Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili - ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari.

Dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlari. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi.

Dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi.

O'zbekistonda bir guruhda 25 nafargacha bola bo'lishi me'yoriy ko'rsatkich sifatida belgilandi, ayniqsa, sinov tariqasida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalarida. Ilgari esa bir guruhdagi bolalar soni 30dan ziyod, ba'zida esa 40tagacha yetar edi, bu esa bolalarning sifatli maktabgacha ta'limga ega bo'lishida muayyan muammolarni keltirib chiqarardi.

"Prezident topshirig'iga ko'ra, 4 hududda 6 yoshli bolalarni majburiy maktabgacha ta'lim bilan qamrab oluvchi sinov loyihasi yo'lga qo'yildi, ya'ni ular 3 soatlik bepul ta'limga jalb qilinadi, bu 15 soatlik haftalik dastur degani. Bu guruhlarda bolalar soni 25 kishidan oshmasligi kerak. Shu tariqa bizda ilmiy-tarbiyaviy-ta'limiy muhit shakllantiriladi. O'z faoliyatimizga endigina kirishganimizda, bolalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga qamrab olish 27 foizdan iborat edi, bugunga kelib bu ko'rsatkich 34 foizni tashkil qilmoqda. MTV o'z oldiga katta vazifalarni qo'ymoqda - shu tariqa barcha bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish va bunda bir guruhda 25 nafar bola qoidasiga amal qilish", - deya izohlaydi vazir.

2030-yilga borib 85 foiz bola respublika MTMlariga qamrab olinishi maqsad qilinmoqda.

Nazorat savollari

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi qanday boblardan tarkib topgan?
2. Yurtimizda mazkur dastur doirasida qanday ishlar amalga oshirib kelinmoqda?
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq alohida ehtiyojga ega bolalarga qanday yordam berish ko'zda tutilgan?
4. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi, -T.:2008 y.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari, T., 2013 y.
3. Bolajon dasturi ,T: 2016 y.
4. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari - T 2000
5. https://hozir.org/pars_docs/refs/29/28397/28397.pdf
6. <https://kun.uz/uz/news/2018/08/29/maktabgacha-talim-muammolar-va-ularning-ecimlari>

IV MODUL. BOLALARNI HUQUQIY TARBIYALASHDA QONUN HUJJATLARIDAN FOYDALANISH

6-mavzu. YUNESKO tashkilotining "Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyasi

Reja:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya xalqaro huquqiy hujjat sifatida.
2. BMTning Bolalar fondi.
3. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 30 yilligi.

Tayanch so'z va iboralar: konvensiya, qonun, qaror, BMT, YUNESKO, YUNISEF, bolalarni kamsitmaslik, ratifikatsiya, bola huquqlari, bolalar fondi, moliyaviy yordam, xalqaro huquqiy me'yorlar.

1960-yil 14 -dekabrda YuNESKO davlatlarning ta'lim soxasida irki, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chikishi, siyosiy e'tikodini kamsitishga yul kuymaslik buyicha ta'lim soxasida Kamsitishlarga karshi kurash turrisidagi Konventsiyani 32 kabul kildi. Konventsiyada shunday koida belgilanganki, unga kura boshlanrich ta'lim majburiy va bepul bulishi davlat zimmasiga yuklatilgan (4-modda a-bandi).

Bola huquqlari to'g'risida konvensiya — bolalar huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to'la va birinchi hujjat. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konvensiya 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi. Deklaratsiya „Insoniyat o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur“ deb e'lon qilgan edi. Konvensiya esa

ushbu Deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalar huquqlari to'g'risidagi qonunlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balog'at yoshi birmuncha erta belgilangan bo'lmasa, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya insonning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari yig'indisidan iborat. U bolalar o'zining axloqiy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarini erkin rivojlantirishi uchun boshqa narsalardan tashqari sog'lig'i va atrof-muhitning xavfsizligi, tibbiy yordamga ega bo'lish va ovqatlanish, kiyim-kechak, turar-joy xususidagi minimal normalar bilan ta'minlanishi zarurligini talab etadi. Konvensiyaga ko'ra, bola o'zining kamol topishida o'zi faol ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini ta'minlaydi. Konvensiya bolaning yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga, farzandlikka olish bilan bog'liq huquqqa, noraso bolalar va qochoq bolalar, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning huquqlariga oid qoidalarini o'z ichiga oladi, bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularni himoya qilishda oila va ota-onaning birinchi darajali roli, bolalarga yordam ko'rsatish borasidagi majburiyatini tan oladi. Bolalarni kamsitmaslik — Konvensiyaning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bolalar irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, millati, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, sog'lig'ining ahvoli, ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoxud qandaydir boshqa holatlardan qat'i nazar, biror-bir kamsitishlarsiz o'z huquqlaridan foydalanishi kerak. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Unga O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-

dekabrda qo'shilgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar uni bajarish yuzasidan tadbirlar bo'yicha Bola huquqlari qo'mitasiga muntazam ravishda milliy ma'ruzalar yuborib turadi. O'zbekiston Respublikasida ushbu Konvensiyani bajarish bo'yicha birinchi milliy ma'ruza 1997-yilda tayyorlandi.⁸

Bolalar fondining missiyasi

YUNISEF yoki BMTning Bolalar fondi O'zbekiston Respublikasida 1994-yildan beri o'z faoliyati doirasida mamlakatning yosh fuqarolari g'amxo'r va do'stona jamiyatda voyaga yetishi, rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. O'zining mandati asosida YUNISEF O'zbekiston bolalarining himoyalanihi, ularning ehtiyojlari qondirilishi hamda ularning salohiyatini namoyon etishga barcha sharoitlar mavjudligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

YUNISEF o'z faoliyatini BMTning Bolalar huquqi to'g'risidagi konvensiyasi asosida amalga oshirib, barcha mamlakatlarda bolalar huquqlarini himoya etish amaliyotini milliy qonunchilikka singdirishga harakat etadi.

O'zining hamkorlik dasturlari doirasida YUNISEF O'zbekiston hukumatini joylarda bolalar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ularning farovonligini ta'minlash, oilaviy ahvolini yaxshilash kabi sohalarda yordam berib kelmoqda. Shuningdek, YUNISEF mazkur sohalarda parlament, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, qishloq aholisi, yoshlar, ommaviy axborot vositalari hamda ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlar bilan ham yaqindan ishlab kelmoqda.

Asosiy faoliyat yo'nalishlari

YUNISEF o'zining O'zbekistondagi faoliyati doirasida ona va bolalarning salomatligi, ular orasidagi o'lish darajasini kamaytirish, ushbu sohada eng yuqori andozalarning joriy etilishi, ona va bolalar oziqlanishi borasidagi eng ilg'or tajribalarni hayotga tatbiq qilish, OIV yuqtirilishining oldini olish, gigiyena talablariga rioya etilishini ta'minlash kabi masalalar milliy qonunchilikda o'zining aksini topishi, shu sohalarda mavjud bo'lgan muammolarning yechilishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Shuningdek, YUNISEF O'zbekistonda har bir bola g'amxo'r muhitda tarbiyalanishi, ta'lim olishi va rivojlanishini ta'minlashga intiladi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida YUNISEF O'zbekiston hukumatini mamlakatda boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim tizimlarini yanada takomillashtirishda, bolalarni barcha turdagi zo'rovonliklardan himoyalashda, ularning huquqlarini ilgari surishda yordam berib kelyapti.

Shuningdek, YUNISEF bolalar huquqlarining bajarilishi, himoya qilinishini ta'minlovchi maxsus kuzatuv tizimini yaxshilashda ham O'zbekiston hukumatini qo'llab-quvvatlaydi, mamlakatda bolalarni himoyalash, ularga g'amxo'rlik qilish madaniyatini yanada yuksaltirishga intiladi.

2016-2020-yillarga mo'ljallanib tuzilgan hamkorlik dasturi doirasida Bolalar fondi O'zbekistonda yashovchi har bir ona va har bir bolaning huquqi, farovonligining muhofaza qilinishini ta'minlashga intiladi. YUNISEF dasturi BMTning Mingyillik taraqqiyot dasturi, Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya hamda Ayollarga nisbatan barcha turdagi kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiyada belgilangan maqsad va vazifalar bilan uzviy bog'liqdir.⁹

⁹ <http://www.un.uz/ozb/pages/display/unicef>

⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bola_huquqlari_to%CA%BBg%CA%BBrisida_konvensiya

Bola huquqlari to'g'risida konvensiyasi

O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda 757-XII-sonli "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida"gi Qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirdi.¹⁰ U quyidagilardan iborat:

bola huquqlari sohasidagi ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish – bolalar axborot-resurs markazlari tashkil etiladi, ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi, maktablarda, litseylarda, kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida ushbu sanaga bag'ishlangan umummilliy dars o'tkaziladi, yilning eng yaxshi maktabi tanlovini o'tkazishda Konvensiya talablariga mos kelishi hisobga olinadi;

• **innovatsion texnologiyalarni hisobga olgan holda, bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish usullari va shakllarini takomillashtirish** – davlat organlarining saytlarida maxsus bo'limlar, ta'lim tizimi muassasalarining saytlarida ma'rifatga qaratilgan o'quv sahifalari yaratiladi hamda bolalarni zo'ravonliklardan himoya qilish masalalarini muhokama qilish bo'yicha onlayn-guruhlar tashkil qilinadi;

• **milliy va xalqaro axborot-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish** – Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasida xalq ta'limi vazirining maktablarda huquqiy savodxonlikni oshirish holati va tendensiyalari to'g'risidagi axboroti eshitiladi, bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha xalqaro forum, shu mavzuda anjumanlar, seminarlar va davra suhbatlari o'tkaziladi;

• **adabiyotlar va boshqa materiallarni tayyorlash va chop etish** – pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun «Xalqaro huquq: bola huquqlari» darsligi nashr qilinadi, «Voyaga

yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ichki ishlar organlari faoliyati» o'quv qo'llanmasi chop etiladi.

1990-yil 2-sentabrda Bola huquqlari to'g'risida Konvensiyaning kuchga kirishi bolalarning zaifligi va alohida ehtiyojlarini xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi uchun qariyb yetmish yillik kurashning eng yuksak nuqtasi bo'ldi. Shuning uchun ham Konvensiyaning qabul qilinishi bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida muhim voqea hisoblanadi. Konvensiyada birinchi marta bola nafaqat maxsus himoyani talab qiladigan obyekt sifatida, balki inson huquqlarining butun spektri beriladigan huquq subyekti sifatida qabul qilinmoqda. Konvensiya 3 qism, 54 moddadan iborat bo'lib, u bolalarning fuqarolik-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarini qamrab olgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya muqaddimasida mazkur hujjatning tarixiy shakllanish asoslari matnida "Inson huquqlari to'g'risida"gi Umumjahon Deklaratsiyadan, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktdan, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktdan, shuningdek, "Bola huquqlari Deklaratsiyasi"dan havolalar keltirilgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 1-moddasida "18 yoshga to'lmagan har bir inson, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi", deb belgilangan.

Konvensiya, uning ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun yuridik majburiyatlarni keltirib chiqaradigan hujjatni aks ettirishini hisobga olgan holda, ushbu yoshning chegaralarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada katta yoshdagilar uchun jinoiy javobgarlik yoshi 18 yosh deb belgilangan bo'lib, uning ishtirokchilari hisoblangan

¹⁰ <https://lex.uz/acts/-2595913>

davlatlarga, agar ularning milliy qonunlarida balog'at yoshiga yetishning boshqacha yoshi belgilangan bo'lsa, unda mazkur yoshni qabul qilmaslikka ruxsat berilgan.

Ta'kidlash kerakki, ushbu Konvensiyaning a'zo mamlakatlari nafaqat Konvensiya qoidalariga rioya etishi, balki o'zlarining milliy qonunchiligini ushbu qoidalarga moslashtirishlari lozim.

1989-yilda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning qabul qilinishi bilan xalqaro hamjamiyat bolalarning jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmaganligi bois, ularni maxsus himoya bilan ta'minlash zarurligini e'tirof etdi.

Shu davrda xalqaro huquqda "bola" tushunchasini aniqlash jiddiy masala sifatida yuzaga keldi. "Bola" tushunchasi ijtimoiy kontekstda ko'rib chiqilishiga qaramasdan ushbu termini huquqiy nuqtayi nazardan ta'riflash yoki uning vaqtinchalik chegarasini belgilash juda muhim hisoblanib, bola shaxs sifatida faqatgina mazkur davrda o'ziga xos maxsus huquqlardan foydalanadi. Xalqaro huquqda bunday ta'riflashning mushkulligi mamlakatlar o'rtasida madaniyat sohasida, diniy masalalarda, siyosiy, huquqiy tizimlarda (xususan, abort qilishga nisbatan har xil qonunchilik) mavjud farqlanishlar "bola" tushunchasiga barcha manfaatdor tomonlarni qoniqtiradigan aniq ta'rif berish mumkin emasligida ko'rinadi.

Odatda, davlatlar qonunchiligida "bola" tushunchasi yoshga oid mezonlar bilan o'lchanadi, ya'ni muayyan muddat mavjud bo'lib, u davrda shaxs bola hisoblanadi. Xalqaro huquqiy tizimda vaqtinchalik chegara asos qilib olinib, u qaysi davrdan boshlab bolalarni huquqiy himoya qilish boshlanishini va u qachon tugashini belgilash yo'li bilan "bola" tushunchasini ta'riflashga harakat qilindi.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning qabul qilinishiga qadar faqatgina 1959-yilda qabul silingan Bola huquqlari

Deklaratsiyasida shaxsning qaysi vaqtdan boshlab bola hisoblanishi aytib o'tilgan.

Ushbu hujjatning muqaddimasida "bola, uning jismoniy va aqliy kamolotga yetmaganligi bois tug'ilishiga qadar undan so'ng alohida muhofazaga hamda g'amxo'rlikka, shuningdek, zarur bo'lgan huquqiy himoyaga ehtiyoj sezadi" deyilgan. Chunonchi, bola hayotining boshlang'ich davrini aniqlash masalasi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya loyihasini muhokama qilishda jiddiy bahslashuvlarga sabab bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, Konvensiya qabul qilinishi bilan bolaning qator yangi huquqlari joriy qilindi:

- omonlikda yashash va sog'lom rivojlanish huquqi (6-modda);
- o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish huquqi (8-modda);
- o'z qarashlarini erkin ifodalash huquqi (12-modda);
- harbiy harakatlarda ishtirok etmasligi (38-modda);
- ishlatish va suiiste'molliklarning qurboni bo'lgan bolaning jismoniy va ruhiy tiklanishi hamda ijtimoiy jihatdan o'zini o'nglab olishiga ko'maklashish (39-modda);

Konvensiyada ilk bor ommaviy ommaviy axborot vositalarining ahamiyati alohida ko'rsatilgan: "Ishtirokchi davlatlar bola turli xil milliy va xalqaro manbalarning axborotlaridan bahramand bo'lishi uchun ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy va madaniy munosabatlarda bola uchun foydali axborot hamda materiallarni tarqatishni rag'batlantiradi" (17-modda). 42-moddaga muvofiq, ishtirokchi davlatlar "Konvensiyaning prinsiplari va qoidalari asosida katta yoshdagilarni ham, bolalarni ham keng xabardor etishni" o'z zimmasiga oladilar.

Konvensiyaning II qismida (42-45-moddalar) bola huquqi bo'yicha qo'mitani ta'sis etish, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning prinsip va normalarining bajarilishi haqida milliy

ma'ruzalarni taqdim etish jarayonini o'z ichiga olgan holda Konvensiyaga rioya qilinishi ustidan monitoringni amalga oshirish tartibi tavsiflangan.

Shuningdek, Konvensiyaning ushbu qismiga mazkur hujjat qoidalari to'g'risida "katta yoshdagilar va bolalarni keng xabardor qilish uchun zarur choralarni qabul qilish" haqida muhim talablar kiritilgan (42-modda).

Tarixda ilk bor Konvensiya doirasida uning qoidalarining bajarilishi ustidan xalqaro nazorat mexanizmi — Bola huquqlari bo'yicha qo'mita yaratilgan. U vaqti-vaqti bilan (5 yilda bir marta) ishtirokchi davlatlarning Konvensiya qoidalarini amalga oshirilishi bo'yicha qabul qilgan chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'ruzalarini ko'rib chiqish vakolatiga ega (44-modda).

Bundan tashqari, qo'mita, shuningdek, Konvensiyada qo'yilgan maqsadlarni bajarish bo'yicha xalqaro hamkorlikning muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadi, deb belgilandi (45-modda). Buning uchun qo'mita ishida BMTning Bolalar jamg'armasi, ixtisoslashtirilgan muassasalari, xalqaro nohukumat tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin. Konvensiyaning yana bir yangiligi — bu shunday qoidaki, unga binoan ishtirokchi-davlatlar "ma'ruzalarini o'z mamlakatlarida keng oshkora etilishini" ta'minlaydilar (44-modda 6-band).

Konvensiyaning III qismida (46-54-moddalar) uni imzolash, ratifikatsiya qilish va unga qo'shilish jarayonlari belgilangan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya

bola huquqlari to'g'risida ham mintaqaviy konvensiyalarni (Afrika birdamlik tashkiloti doirasida 1990-yilda "Bolalarning baxt-saodati va huquqlari to'g'risida"gi Afrika xartiyasi qabul qilindi; Yevropa kengashi tomonidan bola huquqdari to'g'risida Yevropa konvensiyasi ishlab chiqilmoqda), bolaning alohida huquqlarini tartibga soladigan (masalan, 1993-yil 29-mayda Gaagada qabul qilingan xalqaro Farzandlikka olish

munosabatlarida hamkorlik va bolalarni himoya qilish bo'yicha Konvensiya) ishlab chiqilishi uchun asos vazifasini o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda Bola xususlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qildi. Bola huquqdarini rivojlanishining yangi bosqichi 2000-yil 30-sentyabrda Nyu-Yorkda bolalar manfaatlari bo'yicha o'tkazilgan oliy darajadagi Umumjahon uchrashuvidan so'ng yuqori darajaga ko'tarildi.

Mazkur uchrashuvda bolalarni omonlik yashashi, himoya qilinishi va rivojlanishini ta'minlash to'g'risida Umumjahon deklaratsiyasi hamda mazkur deklaratsiyani amalga oshirish buyicha Ish rejasi qabul qilindi.

Ushbu hujjatlarda hozirgi yuz yillikning yakuniga qadar amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq maqsadlar ifodalangan. Masalan:

- bolalarning asosiy kasalliklariga qarshi kurash;
- 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida o'lim sonini kamaytirish;
- onalar o'limi darajasini qisqartirish;
- nogiron-bolalarga har tomonlama yordam ko'rsatish;
- qurolli to'qnashuvlar sharoitida bolalarni himoya qilish;
- bolalarning ajralmas huquqlarini ta'minlash.

2000-yil 25-mayda Bola huquqlari to'g'risidagi 1989-yilgi Konvensiyaga ikkita qo'shimcha protokollar qabul qilindi. Shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan va xalqaro hamjamiyat tomonidan saylangan mustaqil ekspert organi bo'lmish Bola huquqlari bo'yicha qo'mita Konvensiya talablarining bajarilishi bo'yicha monitoringni olib boradi va Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlardan o'z mamlakatlaridagi bolalarning ahvoli haqida muntazam ravishda hisobot berib turishni talab etadi. Qo'mita havola etilgan hisobotlarni ko'rib chiqadi va barcha davlatlarni bola huquqlarini himoya qilish va ilgari surish borasida maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy institutlarni barpo

etishga davlatlarni undaydi. Zarur holatlarda qo'mita turli xil davlatlar tomonidan ko'rsatiladigan xalqaro yordam va YUNISEF tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordamni taklif etadi.

YUNISEF uchun Konvensiya ma'lumot uchun tashkilot ishida amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

YUNISEFning dasturiy bayonnomasida qayd etilishicha, Konvensiya "bola huquqlarini himoya qilishga kirishadi" va "bola huquqlarini bolalarga nisbatan munosabatda axloqiy tamoyillar va xalqaro standartlarni o'rnatishga harakat qiladi".

YUNISEF o'z faoliyatida Konvensiyaning tamoyillari va holatlarini ilgari suradi va tizimli asosda bola huquqlarining ustuvorligi uchun kurashadi.

Konvensiya barcha mamlakatlar tomonidan amal qilinishi shart bo'lgan standartlardan tashkil topib, unda bolalarga nisbatan yangicha qarash o'z aksini topgan. Bolalar o'z otalarining mulki, homiylikning himoyasiz obyektlari hisoblanmaydi. Ular inson bo'lib, o'z huquqlarining egalaridir. Konvensiya bolani uning yoshi va rivojlanish darajasiga mos keladigan, o'z huquq va majburiyatlariga

ega bo'lgan oila va jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida qarashni taklif etadi. Agarda avval bola ehtiyojlari muzokaralar predmeti bo'lgan bo'lsa, bugun u huquqiy jihatdan majburiy huquqlarga va bola esa huquq egasiga aylandi.

Aytish joizki, Konvensiyaning o'ziga xos tomonlari bo'lib, bular:

- barcha mamlakatlar uchun bir xil kuchga ega va shu orqali bolalar uchun mo'ljallangan dasturlarning umumiy axloqiy, huquqiy asosini yaratishga undaydi;

- ilk marotaba rasmiy ravishda bola huquqlarining bajarilishi va uning monitoringi bo'yicha majburiyatlar qabul qilindi;

- bola huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi ekanligini e'tirof etadi;

- bola huquqlari inson huquqlarini to'ldiradi va undan biror-bir jihati bilan ajralib turmaydi;

- bola huquqlari homiylik yoki bolalarga yordam sifatida ko'rilmaydi, balki ular barcha kattalar tomonidan amalga oshirilishi va ta'minlanishi majburiyatini yuklaydi;

- bolalar bilan ishlaydigan nodavlat, shuningdek BMT tasarrufidagi tashkilotlar uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi;

- barcha huquqlar bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim va ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi;

- inson huquqlari uchun davlat mas'ul ekanini va mazkur mas'uliyat bilan bog'liq shaffoflik va jamoat nazoratini amalga oshirish lozimligini tasdiqlaydi;

- bola huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan xalqaro birdamlik tizimining ilgari surilishini ta'minlaydi;

- bola hayotida oilaning muhim rolini ta'kidlaydi va himoya qiladi.

Insoniyat tarixida Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya inson huquqlari bo'yicha hujjatlar ichida eng ko'p, ya'ni 193 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya va Bola huquqlari bo'yicha Qo'mita turli mamlakatlar tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni sharhlash orqali qo'mita davlatlarning o'z strategiyasini ishlab chiqish va amalga tatbiq etishda Konvensiyadan amaliy qo'llanma sifatida foydalanishni tavsiya etadi:

- u bolalar uchun har tomonlama mukammal milliy dasturlarni ishlab chiqishda;

- u hukumatning barcha doiralarida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi, monitoringni olib boradigan doimiy organlar tizimini yaratishda;

- bolalarga oid qonunchilik Konvensiyaga muvofiq kelishini tasdiqlash uchun;
 - bolaga nisbatan ta'sirni baholash maqsadida;
 - bolalar manfaatlarini nazarda tutadigan hukumat siyosatini ishlab chiqishda;
 - bolalarga sarflanadigan davlat budjetining bir qismini tahlil etish va undan samarali foydalanish uchun;
 - mamlakatdagi bolalar ahvolini yaxshilash uchun ma'lumot to'plash va ulardan foydalanish uchun;
 - bolalar bilan ishlaydigan va bolalarning manfaatlarini himoya qilishda, davlat siyosatini shakllantirishda qatnashadiganlarga Konvensiya xususida bilimlar berish va u haqida kengroq ma'lumot tarqatish uchun;
 - bolalar bilan birgalikda fuqarolik jamiyati, bolalar huquqlari haqida ko'proq ma'lumot olish va uni amalga oshirish maqsadida;
 - bola huquqlarini ilgari surish uchun mustaqil tashkilotlar - Ombudsmanlar, Qo'mitalar va boshqa institutlarni tashkil etishda.
- O'zbekiston BMTning inson huquqlariga oid 6ta asosiy va 70dan ziyod universal va mintaqaviy shartnomalarini tan olgan. Mamlakatimizning 1992-yilda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilishi bola huquqlariga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning samarali mexanizmini ishlab chiqishga xizmat qildi.
- O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya ratifikatsiya qilingandan keyin davlatimiz mazkur yo'nalishda 20dan ortiq xalqaro bitimlarga qo'shildi. Shu bilan birga BMT tomonidan qabul qilingan, bevosita bolalar huquqlariga daxldor boshqa me'yoriy hujjatlar, jumladan:
- balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari");

- Qamoqda saqlash bilan bog'liq bulmagan choralarga doir minimal standart qoidalari ("Tokio qoidalari");
 - ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalari;
 - balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplarini ham amalga tatbiq etgan.
 - Birlashgan Millatlar Tashkilotining ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalari.
- Bundan tashqari, bola huquqlarini himoya qilishga doir:
- Xalqaro mehnat tashkilotining "Bolalar mehnatining eng og'ir shakllari to'g'risida"gi 182-Konvensiyasi;
 - "Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida"gi 138-Konvensiyasi;
 - "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi 105-Konvensiya;
 - "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Pakt;
 - "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktga qo'shimcha (fakultativ) Protokoliga ham bolalarning huquq va manfaatlarini muayyan masalalarda muhofaza qilishda murojaat qilinadi.
- Shuningdek, BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, ushbu hujjatning odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosini to'xtatish, oldini olish va uning uchun jazo belgilash to'g'risida bayonnomasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya bolalar savdosi, "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya, "Qullik va qul savdosi va odatlarni bekor qilish to'g'risida"gi qo'shimcha Konvensiya singari tavsiyaviy hujjatlar ham bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi bola huquqlariga aloqador 100dan ziyod huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilgan.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z suverenitetini e'lon qilgandan keyin dastlabki yillarida tan olgan va ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjat Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq tarzda bevosita bola huquqlariga aloqador 100dan ortiq huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Nogironlarning ijtimoiy himoyalanganligi to'g'risida"gi, "Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi, "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlari, Oila kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar fikrimizga dalil bo'la oladi. Ushbu qonunlarda bola huquqlarining qonuniy kafolatlari xalqaro huquqiy me'yorlar mazmunini to'liq o'zida ifoda etadi. Bundan tashqari, mamlakatda bola huquqlari bilan bog'liq bir necha qonunosti hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi mazkur sohada muhim qadam buldi. Qonunning qabul qilinishi natijasida:

- bola huquqlari bo'yicha qonunchilik kodifikatsiyasiga (yuridik me'yorlarni tartibga solish) tamaltoshi qo'yildi;
- milliy qonunchilikni bola huquqlarini himoya qilish xalqaro standartlariga muvofiqligini ta'minladi;
- bola huquqlarini himoya qilish borasida davlat siyosatini konkretlashtirish va bu borada davlat dasturlarini ishlab chiqilishiga yordam berdi.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini kompleks hal etish to'g'risida"gi, "Oilalarga va bolalarga davlat yordami va ijtimoiy

yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik haqida Nizom", "Voyaga yetmaganlarni farzandlikka olish va oilaga, tarbiyaga bolalarni olish (patronat) haqida Nizom " singari qarorlari ana shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi mazkur sohada muhim qadam bo'ldi.¹¹

Bugungi kunda yurtimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan himoya qilish bo'yicha juda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada tegishli huquqiy baza shakllangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalarda o'z ifodasini topgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya inson huquqlari sohasidagi eng muhim hujjatlardan biridir. Hozirgi kunda bolalarni himoya qilish va ularning huquqlari to'liq amalga oshirilishini ta'minlash butun dunyoda davlatlarning majburiyatlariga aylandi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya esa bunga to'liq asos bo'la oladi.

Ma'lumki, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani yaratish ehtiyoji 1959 yil Bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya qabul qilingandan so'ng paydo bo'lgan. Biroq uni tayyorlash jarayoni ko'p vaqtni talab qildi. 1979 yil Xalqaro bolalar yilida jahonning turli mamlakatlari hukumatlari tomonidan tavsiya qilingan fikrlar bo'yicha faoliyat olib boruvchi muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh tuzilib, ushbu ishchi guruh 10 yil davomida muzokaralar olib bordi. Nihoyat 1989 yil 20 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi.

¹¹ Qosimova N., Toshpo'latova N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. -o'quv qo'llanma.

Ushbu sanadan e'tiboran, bola huquqlari himoyasi kafolati butun dunyoda ta'minlandi, uni himoya qilish borasida xalqaro mexanizm vujudga keldi. Konventsiya mubolag'asiz bola huquqlarini himoya qilishning kafolatlari mustahkamlangan birinchi xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uning qoidalarini qat'iy bajarishlari shartligi belgilandi. Konventsiya umumiy me'yorlarni joriy qilib, unda alohida davlatlarning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qirralari aks etgan. Har bir davlat bu me'yorlarning bajarilishiga o'ziga xos milliy xususiyatlarini nazarga olish huquq va imkoniyatiga ega.

Ilgari bola haqida g'amxo'rlik u himoyaga muhtoj bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilardi. Konventsiya qabul qilinishi munosabati bilan mutlaqo yangi kontseptsiya belgilandi. Unda ta'kidlanishicha, g'amxo'rlik va himoya bu — muruvvat masalasi emas, balki huquqdir. Konventsiya kuchga kirishi bilan, u bolalar uchun asosiy ijtimoiy va huquqiy mezonlar, tartib va qoidalar qat'iy belgilangan majmuaga aylandi.

Konventsiyada ilk bor bola tushunchasi ochib berildi, bolaning huquq va erkinlik doirasi kengaytirildi, hujjatda shafqatsiz qiynoq va qurolli to'qnashuvlar qurboni bo'lgan, shuningdek, qonunni buzgan va muomalaga layoqatsiz bolalarning yuridik himoyasi nazarda tutilgan. To'rtinchidan, unda bolalarni ba'zi bir salbiy hodisalar (giyohvand-lik va ruhiy ta'sir etuvchi moddalarni noqonuniy iste'mol qilish, bolalarni sotish va g'ayriqonuniy maqsadlarga jalb etib, ulardan foydalanish) kabi ta'sirlardan himoya qilish masalalari ham alohida qayd etilgan. Konventsiyada shuningdek, bola yoki o'smir huquqlarini himoya qilishda kamsitmaslik tamoyili e'tirof etilgan.

Mazkur xalqaro xujjat bola hayoti bilan bog'liq 54-moddani o'z ichiga olgan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir mamlakat o'z

milliy qonunchiligini uning qoidalariga muvofiq qayta ko'rib chiqishlari lozim.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bola huquqlarini himoya qilish tizimini bosqichma bosqich isloh etish, bu sohadagi xalqaro me'yorlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston tomonidan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiyani ratifikatsiya qilinishi va ushbu xalqaro xujjatni milliy qonunchiligimizga moslashtirish yuzasidan 2008-yil 7-yanvarda "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" Qonunning qabul qilinishi yuqoridagi ezgu ishlarga qonuniy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur Konventsiya respublikamizda bolalar huquqlariga oid milliy qonunchilikning mustahkam bazasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga doir barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. BMTning Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari, 1985-yil) hamda BMTning Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatlarning oldini olish uchun bosh tamoyillari (Ar-Riyod bosh tamoyillari, 1990-yil) shular jumlasidandir.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qonun mamlakatimizda yashayotgan har bir bolaning huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur qonunda bolaning yashash, shaxsiy daxlsizlik, oila muhiti, mulkka egalik qilish, mehnat qilish, ta'lim olish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy himoyalani sh kabi huquqlari kafolatlari aniq belgilab qo'yilgan. Zero, fuqarolik jamiyati bolalarning ulg'ayishi, himoyalani shi va jamiyat hayotida ishtirok etishi, ijtimoiy ta'minot xizmatlari sifatli bo'lishini ta'minlashda qudratli kuch bo'la oladi.

Mazkur yo'nalishlar ijrosiga qaratilgan ishlarning uzviy va tizimli ravishda olib borilayotgani, albatta, soha rivojida, pirovardida millat kelajagini asrashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.¹²

Mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bugungi kunda uning to'laqonli qonunchilik asoslari yaratilgan.

Jumladan, bola huquqlari kafolatlarining qonunchilik asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Vasiylik va homiylik organlari to'g'risida"gi qonunlar va boshqa bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularda bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; bolaning hayoti va sog'lig'ini, qadr-qimmatini muhofaza qilish; uning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; yosh avlodning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish kabi bu boradagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchiligimizning asoslari quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi:

Birinchidan, ushbu qonunchilik asoslari bolalarni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan

normalari va printsiplariga to'la mos keladi. Bunda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyada belgilab berilgan qoidalarning milliy qonunchiligimizda to'la o'z aksini topganligini e'tirof etish o'rindir;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab berilgan insonning asosiy huquq va erkinliklari (siyosiy huquq va erkinliklardan tashqari) to'laligicha bolalarga ham tegishli bo'ladi;

Uchinchidan, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish jarayonida davlat ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan, shuningdek yetim bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning kafolati sifatida namoyon bo'ladi;

To'rtinchidan, davlat bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini doimiy ravishda rag'batlantirib boradi, ularning faoliyatiga ko'maklashadi va har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

Bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarida bola huquqlarining qonuniy kafolatlari alohida belgilab qo'yilganligi e'tiborga molik. Unga ko'ra, har bir bolaga inson huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi. Xususan, bunday huquq va erkinliklar sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:

-har bir bolaga yashash huquqi kafolatlanadi. Bunda yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqi hisoblanib, bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir;

-har bir bola sog'lig'ini saqlash huquqiga ega. Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratadi hamda bolalarga qonun hujjatlariga muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi. Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan malakali tibbiy xizmat

¹² Bolaion dasturi ,T: 2016 y.

ko'rsatilishini tashkil qilish, bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasini olib borish, bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash kabi yo'llar bilan ta'minlanadi;

Har bir bola bilim olish huquqiga ega. Davlat bolaning bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi olishini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq bola huquqlarining quyidagi kafolatlari mustahkamlab qo'yilgan:

-bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi kafolatlari. Unga ko'ra, har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, ota ismi olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega;

-bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari. Unga ko'ra, har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega. Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalaniş huquqiga ega. Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas. Davlat bolaning shaxsi, turar joyi daxlsizligini, xat-xabarlari sir tutilishini ta'minlaydi hamda bolani ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan, shu jumladan jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qiynoqqa solishlardan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan, jinoiy faoliyatga, fohishalik bilan shug'ullanishga jalb etilishdan himoya qilishni amalga oshiradi;

-bolaning himoyaga bo'lgan huquqi kafolatlari. Unga ko'ra, har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining,

fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi;

-bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi kafolatlari. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid bo'lgan hollar bundan mustasno. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi;

-bolaning g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalaniş huquqi kafolatlari. Har bir bola g'ayriqonuniy ko'chirilishdan va chet eldan qaytarilmaslikdan himoyalaniş huquqiga ega;

-bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi kafolatlari. Oilada har bir bola o'z fikrini ifoda etishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida o'z manfaatlariga taalluqli masalalar yuzasidan so'zlashga haqlidir;

-bolaning axborot olish huquqi kafolatlari. Har bir bola o'zining sog'lig'i, axloqiy va ma'naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborotni olish huquqiga ega. Har bir bola har qanday axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega, qonunda nazarda tutilgan cheklashlar bundan mustasno. Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanadi;

-bolaning fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi kafolatlari. Bola fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Bolaning fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonunda belgilangan tartibda cheklanishi mumkin;

-bolaning xususiy mulkka bo'lgan huquqi kafolatlari. Bola qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bolaning shaxsiy foydalanishida bo'lgan, bola tomonidan hadya, meros tariqasida olingan, shaxsiy mehnati evaziga yoki boshqa qonuniy usulda olingan buyumlar, mol-mulk uning xususiy mulkidir;

-bolaning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari. Har bir bola turar joyli bo'lish huquqiga ega. Mazkur huquq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

-bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari. Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari ham nazarda tutilgan. Unga ko'ra, bunday toifa bolalar huquqlarining quyidagi kafolatlari belgilangan:

-ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oila muhitiga bo'lgan huquqi kafolatlari;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashish huquqi kafolatlari;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning turar joyga bo'lgan huquqlari kafolatlari;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari;

-nogiron bolalar, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqi kafolatlari.

Mamlakatimizda bola huquqlarini amalga oshirish nafaqat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, balki bu sohada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ham o'rni beqiyosdir.

Ushbu masala milliy qonunchiligimizda ham o'z aksini topgan. Misol uchun, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda va himoya qilishda ko'maklashadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordam ko'rsatadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari:

-bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro'yobga chiqarishda ishtirok etishi;

-bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkin.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2004 yilda mamlakatimizda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi tashkil etildi. Ushbu markazning vazifasi uch toifadagi bolalarni, ya'ni:

-jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo'lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og'ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar);

-ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalarni (etimlar, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalar bolalari);

-ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo'lgan, biroq xatarli guruhlariga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni (umumiy maxsus qobiliyatli bolalarni, xususan: sportga, badiiy, ilmiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo'lgan bolalarni) ijtimoiy moslashtirish muammolarini o'rganishdan iborat bo'lib, markaz o'zining vazifalarini samarali hamda boshqa nodavlat tashkilotlariga o'rnak bo'ladigan darajada amalga oshirib kelmoqda. Shuni inobatga olib, markaz faoliyatini rivojlantirish va uni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining mintaqaviy filiallari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 68-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Qarshi va Samarqand viloyatlarida markaz filiallari tashkil qilinishi qo'llab-quvvatlandi.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz tomonidan navqiron avlodning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, bugungi kunda bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazaning mavjudligi mamlakatimizda bolalarning huquq va erkinliklari, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ishonchli kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.¹³

Nazorat savollari

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya BMT tomonidan qachon qabul qilingan?

2. O'zbekiston qachon Bola huquqlari to'g'risida konvensiyani qabul qildi?

3. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya qanday qismlardan tashkil topgan?

4. Konvensiyaning bosh maqsadi nima?

5. O'zbekistonda bola huquqlari himoyasi bo'yicha yana qanday qonun va qarorlar qabul qilingan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgach ta'lim konsepsiyasi, -T.:2008 y.

2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari, T., 2013 y.

3. Bolajon dasturi, T: 2016 y.

4. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari - T 2000

5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/bola_huquqlari_tugrisidagi_konvensiyaga_30_yil

6. <http://buxoro.adliya.uz/main/uz/publikatsii/detail.php?ID=28504>

¹³ Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari, T.,

TEST SAVOLLARI

1. Ilk qadam maktabgacha ta'lim tashkilotari davlat o'quv dasturining beshinchi rivojlanish sohasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) Ijodiy rivojlanishi
- B) Jismoniy rivojlanish sog'lom turmush tarzini shakllantirish
- C) Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari
- D) Ijtimoiy-hissiy rivojlanish

2. Tarbiyachining kasbiy sifatleri qaysilar?

- A) tarbiyachi obro'sini tasavvur qila olishi, adolatli va talabchan bo'lishi
- B) bola xususiyatlarini bilish, jamiyat oldidagi o'z ma'naviy mas'uliyatini tushunishi
- C) nazokatli, ziyrak, kuzatuvchan va talabchan bo'lishi
- D) bolalarni yaxshi ko'rishi, chiroyli va loqar bo'lishi

3. Inklyuziv ta'lim va tarbiya —?

- A) jamiyat va davlatning alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan bolalar
- B) individual ehtiyojlarga ega bolalar
- C) bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon;
- D) individual imkoniyatlari teng bo'lgan bolalar

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qachon tasdiqlangan?

- A) 2018 yil 17 iyuldagi 528-sonli qarorida
- B) 2019 yil 13 maydagi 391-sonli qarorida:
- C) 2017 yil 18 iyundagi 183-sonli qarorida
- D) 2020 yil 1 martdagi 75-sonli qarorida

5. "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" qanday xujjat?

- A) me'yoriy hujjat
- B) xalqaro huquqiy hujjat
- C) Nizom
- D) Hujjat hisoblanmaydi

6. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga necha yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi?

- A) 2 yoshdan 7 yoshgacha
- B) 3 yoshdan 7 yoshgacha
- C) 3 yoshdan 6 yoshgacha
- D) 2 yoshdan 6 yoshgacha

7. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun necha bob va moddadan iborat?

- A) 4 bob va 32 modda
- B) 3 bob va 32 modda
- C) 5 bob va 34 modda
- D) 6 bob va 36 modda

8. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyasi qaysi?

- A) kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish kompetensiyalari
- B) Bola kompetensiyalari
- C) Kichik soha, rivojlanish sohasi
- D) Ijodiy rivojlanish

9. Qaysi dastur ta'limda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan?

- A) Bolajon tayanch dasturi
- B) Bilimdon dasturi
- C) "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi;
- D) Savodxonlik dasturi

10. 2019 yil 1 yanvardan boshlab Maktabgacha ta'lim vazirligi qanday asoslar Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimiga kiritishilishi belgilandi?

- A) maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari, pedagoglari va ta'lim-tarbiya jarayoni
- B) Soliq va boshqa to'lovlarni o'z vaqtida to'laganligi haqida
- C) Davlat tomonidan ajratilgan subsidiyalardan maqsadli foydalanayotganligi haqidagi
- D) MTM qurish yoki ta'mirlash uchun davlat imtiyozli asosida berilgan kredit yoki imtiyozlardan to'g'ri foydalanganligi haqida

11. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish, ularga tegishli yer uchastkalari va

ko'chmas mulkni olib qo'yish faqat bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi?

- A) faqat Maktabgacha ta'lim vazirligi
- B) Mahalliy hokimiyat
- C) Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda hokimiyat
- D) Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlagan qaysi qarorning mazmun-mohiyatida, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" kiritilgan?

- A) "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori
- B) "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli Qarori
- C) "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori
- D) "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni

13. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 7 yanvar 2008 yil
- B) 21 dekabr 1995 yil
- V) 2 iyul 2009 yil
- D) 24 mart 2018 yil

14. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qanday tuzilgan?

- A) 2 qism 4 bob 66 moddadan iborat
- B) 4 bob 32 moddadan iborat.
- C) 3 qism 54 moddadan iborat.
- D) 4 bob 17 moddadan iborat.

15. "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" qanday hujjat

- A) me'yoriy hujjat
- B) xalqaro huquqiy hujjat
- C) Nizom
- D) Hujjat hisoblanmaydi

16. Ta'lim to'g'risidagi qonunining nechanchi moddasida Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi deb ko'rsatilgan?

- A) 19- moddasida
- B) 18- moddasida
- C) 17- moddasida
- D) 20-moddasida

17. O'zbekiston Respublikasining 20-
—Ta'lim to'g'risidagi qonunining
moddasining mazmuni nimalardan iborat?

- A) y yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy

vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi,

- B) ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanishi, haqqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, ta'lim muassasalari ish haqiga mo'ljallangan mavjud mablag'lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqliligi,
- C) ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish, ya'ni normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy ta'minlash, bilan
- D) jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'lishi belgilangan.

18. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 21 dekabr 1995 yil
- B) 7 yanvar 2008 yil
- C) 2 iyul 2009 yil
- D) 24 mart 2018 yil

19. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qanday tuzilgan?

- A) 4 bob 32 moddadan iborat.
- B) 2 qism 4 bob 66 moddadan iborat.

- C) 3 qism 54 moddadan iborat.
- D) 4 bob 17 moddadan iborat.

20. Pedagogning kasbiy standarti — ?

- A) Tarbiyachining pedagogik mahorati
- B) Oliy ma'lumotga ega tarbiyachi
- C) maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmuyi;
- D) O'rta maxsus bilimga ega bo'lgan tarbiyachi

21. Ta'lim va tarbiyaning muqobil shakli — ?

- 7. maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish
- 8. maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.
- 9. Oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlash
- 10. MTTlarni rekonstruksiya qilish vazifalarni belgilash

22. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni 2- bobi ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari
- B) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish
- C) Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini tartibga solish
- D) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

23. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni 3- bobi ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari
- B) Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini tartibga solish
- C) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish
- D) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

24. Maktabgacha ta'lim tashkilotarida O'quv tarbiyaviy jarayon qaysi me'yoriy hujjat asosida amalga oshiriladi?

- A) «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari
- B) «Bilimdon» dasturi asosida
- C) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli qarori
- D) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30-sentyabrda PQ-3305-sonli Qarori

25. Maktabgacha ta'lim tashkilotari guruhlarida rivojlantiruvchi markazlar nechta?

- A) 4 ta
- B) 5 ta
- C) 6 ta
- D) 9 ta

26. Bolaning rivojlanish xaritasi bir yilda necha marotaba

to'ldiriladi

- A) Bir yilda 3 marta
- B) Xar chorakda
- C) Bir yilda 2 marotaba
- D) To'ldirilmaydi

27. Maktabgacha ta'lim muassasaning katta guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

- A) 17ta
- B) 10ta
- C) 12ta
- D) 15ta

28. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

- A) 12ta
- B) 10ta
- C) 18ta
- D) 15ta

29. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kichik guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

- A) 12ta
- B) 10ta
- C) 14ta
- D) 15ta

30. Qaysi normativ-huquqiy hujjat oliy yuridik kuchga ega

bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari.
- B) O'zbekiston Respublikasining qonunlari.
- C) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
- D) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish vakolatiga ega?

- A) Buyruqlar hamda qarorlar
- B) Konstitutsiya va qonunlar
- C) Farmonlar, qarorlar va farmoyishlar
- D) Faqat farmonlar

32. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli?

- A) Buyruqlar hamda qarorlar
 - B) Konstitutsiya
 - C) Qonunlar
 - D) Farmonlar
33. 2017- yil 30- sentyabrda

- A) 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707 sonli qaror qabul qilindi
- B) Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi PQ-3261 sonli qaror

- C) Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi PF-5198 sonli farmoni
D) MTM vazirligi ta'sis etildi

34. 27.2017 -yil 30 -sentyabrda ...

- A) Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risidagi PQ-3305 sonli qaror
B) Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi PQ-3261 sonli qaror
C) 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707 sonli qaror qabul qilindi
D) MTM vazirligi ta'sis etildi

35. Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir". Ushbu ta'rif muallifi kim?

- A) Sh.Mirziyoyev
B) A.Avloniy
C) A.Temur
D) I.Karimov

36. "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning prinsiplari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) turmush sharoitlarini yaxshilash borasida ko'maklashish
B) inson shaxsining sha'ni va qadr-qimmatiga bo'lgan o'z ishonchlarini yaxshilash borasida ko'maklashish

- C) ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror-bir boshqa holatlardan qat'iy nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlash
D) Bolaga nisbatan har qanday kamsitishlarning oldini olish
Barcha huquqlar hech qanday istisnosiz barcha bolalarga nisbatan qo'llaniladi.

37. Farmon bu-?

- A) Tegishli soha yoki muhim obyektga, voqelikka nisbatan chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriq va ko'rsatmalarini ifodalovchi me'yoriy hujjat.
B) Tegishli soha yoki muhim obyektga, voqelikka nisbatan chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining topshiriq va ko'rsatmalarini ifodalovchi me'yoriy hujjat.
C) Tegishli soha yoki muhim obyektga, voqelikka nisbatan chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining buyruq va ko'rsatmalarini ifodalovchi me'yoriy hujjat.
D) Boshqarishi sohasi yoki muhim obyektga, voqelikka nisbatan chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining buyuruq va ko'rsatmalarini ifodalovchi me'yoriy hujjat.

38. Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rta guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

- A) 10 ta
B) 14ta
C) 12ta
D) 15ta

39. Ilk qadam maktabgacha ta'lim tashkilotari davlat o'quv

dasturining uchinchi rivojlanish sohasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari
- B) Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- C) Bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishi va uni anglashi
- D) Jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena

40. Oraliq kuzatuvning maqsadi nima?

- A) Bolalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni bajarish
- B) Kuzatishning maqsadi bolalar uchun tanlangan metodikaning to'g'riligini belgilash va rivojlanish dinamikasini aniqlashdan iboratdir;
- C) Kuzatish va baholash
- D) Kuzatishdan maqsad bollar bilimini tahlil qilish

41. "Ilk qadam" o'quv dasturi qachon tasdiqlangan?

- A) 2018 yil
- B) 2017 yil
- C) 216 yil
- D) 2015 yil¹⁴

GLOSSARIY

- **Maktabgacha ta'lim** - Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydigan, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadigan, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydigan, bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladigan jarayondir.

- **Umumiy o'rta ta'lim** - Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.

- **Oliy ta'lim** - iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash.

- **Bakalavriyat** - fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'nalishlaridan biri.

- **Magistratura** - bakalavriyat asosidagi ikki yildan kam bo'lmagan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limning davomi hisoblanadi.

- **Eksternat** - oliy ta'lim dasturiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining o'qitiluvchi tartibini keyingi(joriy va kuniy) attestatsiyagacha tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil o'rganish.

-Masofaviy ta'lim — asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan uzoqda o'quv dasturidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

-“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

-Rivojlanish — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar;

-Rivojlanish sohasi — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar;

-Kichik soha — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

-Kutilayotgan natija — bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

-Bola kompetensiyasi — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlari;

-Integratsiya — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

-Inklyuziv ta'lim — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

-“Men” konsepsiyasi — bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning reflektiv faoliyatini bir qismi;

-Refleksiv faoliyat — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.

-Maktabgacha tarbiya tashkiloti — ta'lim-tarbiya muassasasi hisoblanadi, uning vazifasiga bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilishga doir qiziqishlarini, madaniy-axloq-odob ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, unda bilimga muhabbat uyg'otish, salomatligini mustahkamlash kiradi.

-Kommunikativ kompetensiya — muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

-O'yin kompetensiyasi — bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

-Ijtimoiy kompetensiya — hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

-Bilish kompetensiyasi — atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

-Dastur — muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydilar.

-Bola huquqlari to'g'risida konvensiya — bolalar huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to'la va birinchi hujjat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Юсупова П. Мактабгача тарбия педагогикаси. Т.: Ўқитувчи, 1993.
2. Хасанбоева О.У. ва бошқ. Мактабгача та'лим педагогикаси. Т.: Илм зиё, 2006.
3. Ш.А.Содиқова "Мактабгача педагогика". "Тафаккур сарчашмалари", Т.: 2013 й.
4. Н.М.Каюмова "Мактабгача педагогика". "ТДПУ" нашриёти, Т.: 2013 й.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. -Т.:O'zbekiston, 1997 у.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, -Т.:O'zbekiston, 1997 у.
7. Maktabgach ta'lim konsepsiyasi,-Т.:2008 у.
8. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari, Т.: 2013 у.
9. Bolajon dasturi ,Т: 2016 у.
10. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari - T 2000

Internet saytlari

11. <https://fayllar.org/samarqand-iqtisodiyot-va-servis-instituti.html?page=6>
12. <https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-bu-v4.html?page=2>
13. <https://fayllar.org/1-mavzu-ozbekiston-respublikasi-talim-tizimi-pedagogika-shaxs.html>
14. <https://kun.uz/uz/news/2019/08/30/yangi-tahrirdagi-ozbekiston-respublikasining-talim-tog'risidagi-qonuni-loyihasi-elon-qilindi>
15. <https://lex.uz/docs/-4327235>
16. <https://www.xabar.uz/uz/talim/maktabgacha-talim-tizimini>
17. <https://lex.uz/docs/-3805404>
18. <https://nrm.uz/content?doc=130269> maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risida
19. https://hozir.org/pars_docs/refs/29/28397/28397.pdf

20. <https://kun.uz/uz/news/2018/08/29/maktabgacha-talim-muammolar-va-ularning-ecimlari>
21. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bola_huquqlari_to%CA%BB
22. <http://www.un.uz/ozb/pages/display/unicef>
23. <https://lex.uz/acts/-2595913>
24. <https://lex.uz/docs/-4427813>
25. <https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda-yangi-bola-huquqlari-tug'risidagi-konvenciyaga-30-yil>
26. <https://www.lex.uz/ru/docs/-135679>
27. Qosimova N., Toshpo'latova N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari.-o'quv qo'llanma.
28. <https://fayllar.org/kunduzgi-bo.html?page=3>
29. <http://buxoro.adliya.uz/main/uz/publikatsii/detail.php?ID=28504>

MUNDARIJA

I MODUL. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

1-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uning turlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni.....	4
2-mavzu. 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.....	32

II MODUL. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

3-mavzu. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.....	58
4-mavzu. O'zbekiston Respublikasi MT sohasiga doir namunaviy Nizomlar.....	93

III MODUL. "ILK QADAM" DASTURI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINING DAVLAT O'QUV DASTURI

5-mavzu. "Ilk qadam" dasturi maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi.....	105
--	-----

IV MODUL. BOLALARNI HUQUQIY TARBIYALASHDA QONUN HUJJATLARIDAN FOYDALANISH

6-mavzu. YUNESKO tashkilotining "Bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiyasi.....	112
---	-----

TEST SAVOLLARI	135
GLOSSARIY	146
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	149

I.A.OXUNOV

MAKTABGACHA TA'LIMNING ME'YORIY ASOSLARI

o'quv qo'llanma

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2021

Muharrir Xolsaidov F. B.

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27. 10. 2018.
Bosishga 05. 02. 2021. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.
"Times New Roman" gamituras.
Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 10. Nashr bosma tabog'i 10.
Adadi 50 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.

G0631C.62T.

ISBN 978-9943-5866-4-3



9 789943 586643